bilan barcha fanlar, xususan falsafa, ijtimoiy iktisod, ijtimoiy-siyesiy fanlar uzviy boglik. Bu fanlarning kanday goyaga asoslanish, ularni ukitish asosida yeshlar ongi va inshonchiga, kalbiga kanday goyalar singdirilish xar kanday jamiyat uchun axamiyatlidir. Ayniksa mustabit tuzim davrida bu fanlarni uta mafkuralashtirib, xalklar, mamalakatlar va millatlar takdiriga, uning rivojlanish yuli, milliy-madaniy merosiga, kadriyatlariga xam «sinfiy» manfaatlar «kommunistik goya» talablaridan kelib chikib yendoshilganligini anik xisobga olish kerak. Natijada, Uzbekiston xalki xayeti, tarixi, «uzga xalklar tarixi»ni urganishdan iborat bulib kolgandi. Milliy madaniyat, kadriyatlar urnida soxta baynalminallashtirilgan, moxiyatan milliylikni e'tirof etmaydigan, milliy kadriyatlarni begona shaklan milliy, mazmunan sosialistik bulgan prinsipga buysindirilgan edi. Butun ta'lim va tarbiya, fan va ilmiy muassasalar, madaniy-marifiy ishlar, adabiyet va san'at, ijod uchun «sosialistik realizm» muxim mezonga aylangan, tugrirogi aylantirilgan. Shunga javob berish va shunga amal kilinish shart edi. Bu barcha ijtimoiy gumanitar fanlarning bir xil kolipga solinishga, yagona kammunistik goya va mafkuraning targibotchisiga aylantirishga olib keldi.

Bugun milliy istiklol goyasining boshka fanlar bilan munosabati tugrisida fikr yuritilganda, avvalo, uni kommunistik goya prinsiplaridan tub farkini xisobga olish muxim axamiyatga ega. Ayni paytda, fikrlar xilma-xilligi, goyalar xilma-xilligi prinsipiga asoslanish, xalkning manaviy madaniy merosi va kadriyatlariga taynish xamda umumbashariy prinsiplarini e'tirof etish koidasi fanlarning rivoji uchun keng imkoniyat beradi. Ikkinchidan xar bir fan yunalishlari orkali milliy istiklol goyasi negizlarini bilib olish mumkin. Masalan milliy istiklol goyasining tarixiy ildizlarini-tarix orkali, falsafiy jixatlarini-falsafa, iktisodiy asoslarini-iktisod, diniy asoslarini-dinshunoslik, adabiyet va san'at bilan boglik tamonlarini urganish orkali milliy goya kishilarning ishonch va e'tikodiga aylani boradi. Boshka fanlar xam uz predmeti, maksad va vazifalari bilan shu mushtarak maksadga xizmat kiladi.

Xullas, milliy istiklol goyasi, uning asosiy tushuncha va tamoyillarini yeshlarimiz kalbi va ongiga singdirish sermashakat, serkirra va sharaflı vazifadir.

«Milliy istiklol goyasi» fanining axamiyati, ijtimoiy fanlar orasidagi urni, ular bilan alokasi, tarbiyaviy funksiyalari ana shu vazifani samarali amalga oshirish bilan belgilanadi. Bu esa shu soxada mexnat kilayetgan xar bir olim, mutaxasis va ukituvchidan yuksak ma'suliyat, faol va omilkor bulishini talab kiladi.

Milliy istiklol goyasi falsafiy bilimlar tizimiga mansubligidan, uziga xos metodologik vazifani xam bajaradi. Ya'ni u boshka xususiy ukuv fanlari, masalan tarix, adabiyetshunoslik, ma'naviyat asoslari va boshkalar shugullanadigan masalalarni xal kilish uchun tayer andozalarni bermaydi, balki ularni va soxa bilan shugullanuvchi xamda urganuvchilarni goyaviy dunekarash, umummafkuraviy tamoyillar bilan kurollantiradi. Bu borada milliy istiklol goyasi boshka soxa vakillari uchun xozirgi dunening mafkuraviy manzarasi, inson ongi va kalbi uchun kurash, mustakillikni, mustaxkamlashning mafkuraviy tamoyillari mazmunini bilib olishda metodologik asos vazifasini utaydi.

Mamlakatda fukarolik jamiyati kurilishda uning axamiyati doimo oshib boradi. Chunki duneda turli xil goyalar, maksadlar mavjud bular ekan, milliy istiklol goyasi tizim sifatida amal kilish kerak. Shunda Uzbekiston uzining tadrijiy rivojiga ega buladi. Milliy goya xayet uzgarishlari bilan boglik xolda doimo yangi-yangi muammolarga duch kelishi mumkin. Xar bir davr, zamon va makon uzgarishlari, unga bulgan ishonch va e'tikod zaruratini doimo saklab koladi. Fakat uni yangi sharoitda yangicha yendashuv, yangicha texnologiyalarni joriy etish asosidagina odamlar ongi va tafakkuri, ishonch va e'tikodi bilan boglik ma'naviy-ruxiy olamning negizi bulgan milliy istiklol goyasi uzlusiz ravishda mustakillikni mustaxkamlashga va rivojlantirishga shart-sharoit yaratadi.


Demak, Prezident I.A Karimov ta'kidlagandek, «Endigi vazifamiz shundan iboratki, milliy istiklol goyasi tushunchalari asosida keng jamoatchilik, ziyeilarimiz, ilm-fan va madaniyat namoyandalari, avvalo, ma'naviy-ma'rifiy soxa xodimlari miliy mafkurani takomillashtirish xamda uning asosiy tamoiyillarini odamlar ongi va kalbiga singdirishga karatilgan ishlarni yangi boskichga kutarishlari zarur»

Vizual materiallar

1-ilova

Миллий ғоя деганда, аждодлардан авлодларга ўтиб, асрлар давомида эъзозланиб келинаётган, шу юртда яшаётган ҳар бир инсон ва бутун халқнинг қалбида чуқур илдиз отиб, унинг маънавий эҳтиёжи ва ҳаёт талабига айланиб кетган, ҳар қайси миллатнинг энг эзгу орзу-интилиш ва умид-мақсадлари бўндан кенг маъноли тушунчанинг мазмун-моҳиятини ифода қиласди

O'QUV FANING PREDMETI



Milliy istiqlol g'oyasini xalqimiz qalbi va ongiga singdirish sohalari, vositalari, usul va yo'llarini o'rghanish

Milliy istiqlol g'oyasining mohiyati va mazmuni

Milliy istiqlol g'oyasining asosiy tamoyillari maqsad va vazifalar

Millatlararo totuvlik

Diniy bag'rikenglik

1 Mavzu: Milliy istiqlol g'oyasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Syeminar mashg'ulotining ukitish tyexnologiyasi

O'quv vaqtি 2 soat	Talabalar soni 25-30
O'quv mashg'ulotining shakli.	Bilimlarni shukurlashtirish va kyengaytirish buyisha syeminar mashguloti
Syeminar ryejasi	<ol style="list-style-type: none"> Milliy istiqlol g'oyasi fanining obyekti va qadriyati. Milliy istiqlol g'oyasi fanining qonun va kategoriyalari (asosiy tushunchalari). Milliy istiqlol g'oyasi fanining maqsadi va vazifalari. Milliy istiqlol g'oyasi fanining boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o'zaro aloqadorligi.
<i>O'quv mashg'uloti maqsadi:</i> Talabalarga akliy xujum usulini kullash orkali milliy istiqlol g'oyasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari haqida tushuncha berish.	
Pyedagogik vazifalar: Mavzuning tub mohiyatidan kyelib shiqqan holda, syeminarsavollarini muayyan qismlarga bo'lish, har bir qismni o'zaro mantiqiy bog'liqlikni ta'minlash, oshib byerish, tushuntirish, shakllantirish. Darslik bilan ishslash kunikmalarini xosil kilish. Matyerialni taxlil kilish va tizimlashtirish kunikmalarini shakllantirish	O'quv faoliyatining natijalari: milliy istiqlol g'oyasi fanining obyekti va qadriyati, milliy istiqlol g'oyasi fanining qonun va kategoriyalari (asosiy tushunchalari). Milliy istiqlol g'oyasi fanining maqsadi va vazifalari, Milliy istiqlol g'oyasi fanining boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o'zaro aloqadorligi oshib byeriladi.
Ta'lim usullari va tyexnikasi	Muloqot, aqliy hujum, Muammoli vaziyat

O'quv faoliyatining tashkil qilish shakllari.	Jamoa, guruhlarda ishlash.
Ta'lim vositalari.	Doskas, bur, darslik, ko'rgazmali qurollar.
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat savol- javob, ryeyting tizimi asosida baxolash

1 MAVZU: Milliy istiqlol g'oyasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.

Syeminar mashg'ulotining tyexnologik xaritasi.

Ishlash bosqishlari va vaqtি	Faoliyat	
	Ta'lim byeruvshi	Ta'lim oluvshi
1 bosqish Kirish 10 daqiqa	<p>1.Mavzu: Milliy istiqlol g'oyasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.</p> <p>Mashg'ulot ryejasi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Falsafaning predmeti va asosiy bahs mavzulari 2. Falsafiy dunyoqarash, uning xususiyatlari va tamoyillari 3. Falsafaning asosiy yo'nalishlari, fanlar tizimidagi o'rni va vazifalari 4. Mustaqillik va falsafiy dunyoqarashning yangilanish zarurati. <p>Maqsadi: Talabalarga milliy istiqlol g'oyasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari haqida tushuncha berish.</p> <p>Talabalarni baholash myezoni bilan tanishtiradi.</p>	Tinglaydilar, aniqlaydilar.

2 bosqish Asosiy 60 daqiqa	<p>2.1. Talabalarni 3 ta kishik guruxlarga ajratadi. Mavzu buyisha tayyorlangan topshiriklarni yeshishda «Muammoli vaziyat», «Akliy xujum» , « Baxs- munozara» usullaridan foydalanadi.</p> <p>2.2. Guruxlarni ishlash koidasi bilan tanishtiradi va savollvrni tarkatdi.</p> <p>2.3. Talabalar javobini sharxlaydi, xulosalarga e'tibor byeradi, aniklik kiritadi.</p> <p>2.4. Guruxlar faoliyatiga umumiyl ball byeradi.</p> <p>2.5. Talabalarga B.B.B. usuli bo'yicha ifodalangan jadvalni namoyish qiladi va ustunlarni to'ldirishni aytadi (3-ilova)</p>	<p>2.1. Guruxlarda ishslash koidasi bilan tanishadilar.</p> <p>2.1. Savollarga javoblarni byeradilar va muxokamada faol ishtirop etadilar.</p>
3-boskish YAkuniy (10 dakika)	<p>3.1. Mashgulotni yakunlaydi talabalarni baxolaydi va faol ishtiropshilarni ragbatlantiradi.</p> <p>3.2. Topshirik byeradi.</p>	<p>Eshitadilar Topshirikni oladilar</p>

Keys-stadi usuli qo'llanilgan o'quv mashg'ulotining tyexnologik xaritasi

Ishlar bosqichi va mazmuni	<i>F a o l i y a t</i> ta'lim byeruvchi	ta'lim oluvchi
Tayyorgarlik	Tanishish uchun talabalarga keys matyeriallarini tayyorlaydi va avvalgi mashg'ulotlarda tarqatadi.	Keys mazmuni bilan tanishadilar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (5 daq.)	<p>1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, kutilayotgan natijalar va uni olib borish rejasи bilan tanishtiradi.</p> <p>Keys ahamiyatini va uni kasbiy bilimlarni rivojlanishiga ta'sirini tushuntiradi.</p>	Diqqat qiladilar.

2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish (10 daq.)	<p>2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida mavzuning asosiy tushunchalari bo'yicha tyezkor-so'rov o'tkazadi (ilova).</p> <p>2.2. Syeminarda ishslash tartibi, baholash ko'rsatkich va mezonlari bilan tanishtiradi (ilova)</p>	<p>Savollarga javob byeradilar.</p> <p>Muhokama qiladilar, aniqlashtiruvchi savollar byeradilar.</p>
3-bosqich. Alovida ishlash (20 daq.)	<p>3.1. Keys matyeriallarini muhokama qilishni tashkillashtiradi, ishslash qoidasi, vaziyatlarni tahlil qilish chizmasi, muammolarni ifodalanishiga e'tibor byerishlariga qaratadi.</p> <p>3.2. Vaziyatni mustaqil tahlil qilishni, muammoni ifodalashni, yechish yo'llarini aniqlashni, so'ngra uni yechish topshirig'ini byeradi</p>	<p>Keys matyeriallarini muhokama qiladilar, aniqlaydilar, savollar byeradilar.</p> <p>Mustaqil ravishda tahlil qilish varag'ini to'ldiradilar, muammoni yechadilar.</p>
4-bosqich. Kichik guruhlarda ishlash (20 daq.)	4.1. Talabalarni kichik guruhlarga bo'ladi va topshiriq byeradi: vaziyatni muhokama qilish va tahlil qilib ko'rish, guruh uchun vaziyatni tahlil qilish varag'ini to'ldirish, yechish tartibini ishlab chiqish, topshiriqni yechish, taqdimotga tayyorlanish	Keysni yechish va taqdimot varag'ini tayyorlash bo'yicha harakatlar qiladilar
5-bosqich. Taqdimot (20 daq.)	<p>5.1. Taqdimot, muhokama va guruhlarni taqdimotini o'zaro baholashni tashkillashtiradi.</p> <p>Javoblarni sharhlaydi, tahlil qilish va muammoli vaziyatni yechish jarayonida qilingan xulosalarga e'tibor qaratadi. Keys bo'yicha o'zining javobini havola qiladi (ilova)</p>	<p>Guruhlar taqdimot qiladilar</p> <p>Boshqa talabalar munozarada ishtirop etadilar, savollar byeradilar</p>

Testlar

1. Millny g'oya nima?

A* Muayyan xalq yoki millatning manfaatlarini ifoda etadigan, yagona maqsad sari undovchi ezgu fikrlar majmui.

V Muayyan maqsad uchun xizmat qiluvchi g'oyalar tizimi

S Ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy karashlar

D Umuminsoniy qadriyatlar majmui

2. "Milliy istiklol g'oyasi" fanining asosiy maqsadi nima?

A Yoshlarni eski mafkuraviy asoratlardan xalos etish

V Yoshlar ongnda g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l ko'ymaslik

S* A va V

D) V va D

3. "Milliy nstiqlol g'oyasn" o'quv fani oldida turgan asosiy vazifalar?

A Iyomon-e'tikodi mustahkam, dunyoni chukur anglaydigan, davr taraqkiyoti bilan hamqadam, erkin, ijodkor shaxsni shakllantirish.

V Diniy bilnmni chuqur egallagan shaxsni shakllantirish

S Yuqorn darajadagi siyosiy bilim egasi bo'lgan shaxsni tarbiyalash

D* Barcha fanlardan xabardor, chuqur bilim sohibi bo'lgan shaxsni tarbiyalash

4. Milliy mafkura nima?

A Halqni olga yetaklovchi ezgu fikrlar majmun

V* Milliy g'oyaga yetishdek ezgu maqsad yo'lida muhim sanalgan g'oyalar tizimi

S Barcha millat va elatlarning g'oyaviy qarashlari

D O'zbekiston Respublikasida yuz berayotgan ijtimoiy o'zgarishlar

5. Milliy mafkurani shakllantirish maibai?

A Iktisod

V Siyosat

S* Ma'naviyat

D) Millat

6. "Inson tarixi" tushunchasining mohiyati kaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A Kishilar tarixi

V Xalklar tarixi

S O'zbekiston tarixi

D* G'oyalar tarixi

7. G'oya tushunchasini siz qanday tushunasiz?

A Tarixning mahsuli

V* Insonlarni maqsad sari yetaklaydigan fikr

S Kishining bilim darajasi D Tabiat xakidagi karashlar

8. Aqidaparastlik mafkurasnnnng moxiyati qaysi javobda berilgan?

A* Jamiyat tarakkiyotigato'skinlik kilish
qo'shish V Jamiyat rivojiga hissa

S Jamiyat ravnaqi uchun kurash
ravnaki uchui qayg'urish D Xalq farovonligi va Vatan

9. Milliy mafkura g'oyalari shakllantirishga o'z xissasnni qo'shgan alloma?

A Konfusiy V Lao Szi S Immanuel Kant D* Alisher Navoiy

10. Asosi o'simlik va hayvonlarga sig'inishdan iborat bo'lgan mafkura kanday nomlanadi?

A Anemizm V Fetishizm S* Totyemizm D Monnizm

11. Mafkuraviy g'oyalarning yaratilishida aholinnng qaysi katlamni alohida o'rinish tutadi?

A Ishchilar V Dehqonlar S fuqarolar D* Buyuk mutafakkirlar

12. Ibtidoiy mafkura sanalgan mafkura nomini ko'rsating?

A Monizm, dualizm V idealizm, matyerializm

S *Totyemizm, Animizm D Iudaizm, sintoizm

13. Diniy mafkurya sanalgan mafkuralar nomini aniklang?

A* Iudaizm, sintoizm V Shovinizm, kosmopolitizm

S Nihilizm, fetishizm D Idealism, matyerializm

14. Animizm mafkurasining mohiyati qaysi javobda berilgai?

A Hayvon va o'simliklarga sig'inish
ishonish V Har bir narsa joni borligiga

S* Jonsiz narsalarga ishonish D Turli haykallarga sig'inish

15. Yaponiyada tarqalgan diniy talimot?

A Iudaizm V Monizm S* Sintoizm D) Komfutsiylik

16. Bir millatni o'zga millatlardan ustun qo'yishga undovchi ta'limot?

A Nihilizm V Matyerializm S* Shovinizm D) Kosmopolitizm

17. "Olam va odam ilohiy kuch, xudo tomonidan yaratilgan" degan goyani ilgari suruvchi ta'limot?

A Matyerializm B* Idealizm S Monizm D Shovinizm

18. Kosmopolitizm qайдай мafkura?

- A Hyech narsani tan olmaslik, hamma narsani rad etishga asoslangan mafkura
V Olamning asosi bitta deb tushuntiruvchi mafkura
S Olamning oliv ruh tomonidan yaratilganligini e'tirof etuvchi mafkura
D* Vatansizlikni yoqlaydigan, milliy qadriyatlarni va an'analarni tan olmaydigan mafakura

19. Muayyan jamiyatning ichki va tashki taxdidlarga dosh berolmasligining sababi nimada?

- A Aholi sonining kamligida
V Mehnatga yarokli aholi qatlamining kamligida
S* Jamiyat g'oyaviy asosining kuchsizligida
D Jamiyat g'oyaviy asosining kuchliligida

20. XX asrning 30 yillarida Italiya va Germaniyada vujudga kelgan va o'zida "oliy irq" g'oyasini ilgari surgan g'oya?

A Sosializm V Kommunizm S* Fashizm D Matyerializm.

21. Aqidaparastlik oqibatida qatl etilgan xur fikrli olimlarning nomlarini aniqlang?

- A Ibn Sino B Mansur Halloj C Boborahim Mashrab D* B va C javoblar

22. Hur fikrlilik qanday manoni bildiradi?

- A* Erkin fikrlash asosida haqiqatni anglash V Taraqqiyotga intilish
S Fanni rivojlantirishga qiziqish D Diniy bilimlarni chuqur bilish

23. O'zbekistoi Respublikasining Konstitusiyasi qachon qabul qilingan?

A 1991 yil 2 nyun V 1991 yil 9 yanvar S 1991 yil 2 mmart D* 1992 yil 8 dekabr

24. O'zbekiston Respublikasining Davlat Bayrog'i qachon qabul kilingan?

A 1990 yil 18 iyul B* 1991 yil 18 noyabr S 1992 yil 9 dekabr D 1992 yil 18 mart

25. O'zbekiston Respublikasining Davlat Gerbi qachon qabul kilindi?

A*1992 yil 2 iyul V 1992yil 2iyun S 1991 yil 18noyabr D 1990 yil
dekabr

26. O'zbekiston Respublikasiniig Davlat madxiyasi qaysi misralar bilan boshlanadi?

- A Oltin bu vodiylar jon O'zbekiston
Ajdodlar mardona, ruhi syenga yor
V* Syerkuyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot,
Syen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon
S Ulug' xalk kudrati jo'sh urgan zamon
Olamni mahliyo aylagan diyor
D Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar syenga zo'r qanot

27. O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasining mualliflari kim?

- A Erkin Vohidov, Mutal Burhonov V Abdulla Oripov, Erkin Vohidov
S Mutal Burhonov, Usmon Azimov D* Abdulla Oripov, Mutal
Burhonov

28. O'zbekiston kelajakda qanday jamiyatni qurishga intilmoqda?

- A Adolatli jammyag V Demokratik jamiyat
S Fukarolar jamiyatni D* Barchasi to'g'ri

29. Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash ishida faol ishtirok etuvchi jamg'armalar?

- A "Shahidlar xotirasi", "Nuroniy", "Ulug'bek" jamg'armalari
B* "Umid", "Kamolot" jamg'armalari
S "Amir Tyemur", "Usto" jamg'armalarni
D "Bobur", "Ustoz" jamgarmalari

30. Yoshlarda xuquqiy madaniyat qanday namoyon bo'ladi?

- A Huqukiy burch va mas'uliyatni tyeran anglashda
V Huqukiy va demokratik davlat barpo etish jarayonidagi faol ishtirokida
S Jamiyat va davlat manfaatlarini fuqarolik huquklarn bilan uyg'unlashtira olishda
D* Yukoridapsharning barchasi

31. Quyidagi javoblarning qaysi biri ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda muxim axamiyat kash etadi?

- A Salomatlik V Adolatlik . S* Kitobxonlik D Vatanparvarlik

32. Inson salomatligini ta'minlashdagi muhim omil nima?

- A Inson V Jamiyat S* Atrof-muhit D Madaniyat

33. Tabiatni muhofaza kilish to'g'risidagi fan nomini ko'rsating?

- A*Ekologiya B Siyosat S Iqtisod D San'at

34. Inson ma'naviy kamolotini shakllantirishda qaysi soha asosiy o'rinni tutadi?

- A Siyosat, xayolot V Iqtisod, falakiyot S Ekologiya, psixologiya D* San'at, adabiyot

35. Quyidagilariing kaysi biri insoniy fazilat?

- A Mehnatsyevarlik, rostgo'ylik, salomatlik V Adolatlilik, e'tiqodlilik, baquvvatlik
S* Mehr-oqibat, muruvvat, saxovat D To'gri so'zlik, kamtarlik, kuchlilik

36. O'zbek xalqi uchun xaraktyerli bo'lgan fazilatlarni ko'rsating?

- A* Bolajonlnk, mehmondo'stlik V Yaxshilik, oqibatlilik
S Latofatlilik, nazokatlilik D Fidoyilik, xushxulklik

2-Mavzu: Jamiyat taraqqiyotining g'oya, mafkuralar bilan o'zaro bog'liqligi.

Ma'ro'za mashg'uloti ta'lif texnologiyasining modyeli

O'quv vaqtি 2 soat	Talabalar soni 80- 90
O'quv mashg'ulotining shakli va turi. Ma'ro'za ryejasи.	<p>1.Foya vaa mafkura tushunchalarining mohiyati-mazmuni</p> <p>2.Foya va mafkuralarning inson va jamiyat hayotiga ta'siri. Bunyodkor va vayronkor g'oyalar.</p> <p>3.Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurash tamoyilining turli xalqlar va jamiyatlar taraqqiyotidagi ahamiyati.</p>
O'quv mashg'uloti maqsadi:	Talabalarga jamiyat taraqqiyotining g'oya, mafkuralar bilan o'zaro bog'liqligi haqida tushuncha berish.
Pyedagogik vazifalar: Mavzuning tub mohiyatidan kyelib shiqqan holda, ma'ro'zani muayyan qismlarga bo'lish, har bir qismni o'zaro mantiqiy bog'liqlikni ta'minlash, oshib byerish, tushuntirish, shakllantirish.	<p>O'quv faoliyatining natijalari: Foya vaa mafkura tushunchalarining mohiyati-mazmuni</p> <p>Foya va mafkuralarning inson va jamiyat hayotiga ta'siri. Bunyodkor va vayronkor g'oyalar.</p> <p>Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurash tamoyilining turli xalqlar va jamiyatlar taraqqiyotidagi ahamiyati. oshib byeriladi.</p>
Ta'lif usullari	Ma'ro'za, muloqot, aqliy hujum,insert
O'quv faoliyatining tashkil qilish shakllari.	Jamoa, guruhlarda ishlash.
Ta'lif vositalari.	Ma'ro'za matni, auditoriya doskasi, darslik,

	ko'rgazmali qurollar.
Monitoring va baholash	Og'zaki so'rov: Tyezkor so'rov.

2-MAVZU: Jamiyat taraqqiyotining g'oya, mafkuralar bilan o'zaro bog'liqligi.

Ma'ro'zaning texnologik xaritasi. **2 soat**

Ishlash bosqishlari Vaqtি	Faoliyat	
	Ta'lim byeruvshi	Ta'lim oluvshi
1 bosqish Kirish 10 daqiqa	<p>Mavzu: Jamiyat taraqqiyotining g'oya, mafkuralar bilan o'zaro bog'liqligi.</p> <p><u>Mashg'ulot ryejasi:</u></p> <p>1.Foya vaa mafkura tushunchalarining mohiyati-mazmuni</p> <p>2.Foya va mafkuralarning inson va jamiyat hayotiga ta'siri. Bunyodkor va vayronkor g'oyalar.</p> <p>3.Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurash tamoyilining turli xalqlar va jamiyatlar taraqqiyotidagi ahamiyati. Maqsadi: Jamiyat taraqqiyotining g'oya, mafkuralar bilan o'zaro bog'liqligi haqida tushuncha berish.</p> <p>Talabalarni baholash myezoni bilan tanishtiradi.</p> <p>Adabiyotlar ro'yxati ilova qilinadi.</p>	<p>Tinglaydilar aniqlaydilar va muhim joylarini yozib boradilar.</p>
2 bosqish Asosi 60 daqiqa	2.1. Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash ushun tyezkor savol-javob o'tkazadi.	Tinglashadi, savol byerishadi, javoblarni eshitishadi. Ta'riflarni yozib oladilar. Ma'lumotlarni umumlashtirib bilimlarni

	<ul style="list-style-type: none"> - milliy g'oya haqida nimani bilasiz? - milliy g'oya qaysi fanlar bilan aloqador? <p>2.2. O'qituvshi ma'ruzani bayon etishda davom etadi.</p> <p>2.3. Talabalarga mavzuning asosiy tushunshalariga e'tibor qilishni va yozib olishlarini ta'kidlaydi.</p>	shukurlashtiradilar
3-boskish YAkuniy (10 dakika)	<p>3.1. Mavzuni mustahkamlash ushun savollarga javob byeradi.</p> <p>3.2. Mustaqil ish ushun topshiriq byeradi.</p> <p>3.3. Darsni yakunlaydi.</p>	Savol byeradilar, aniqlaydilar.

Vizual materiallar

1-ilova

GOYANING FALSAFIY TALQINI

G'oyaning voqelik va hayot ta'sirida vujudga keladigan, uni aks ettirish asosida shakllanadigan dunyoni bilishning o'ziga xos shakllaridan biridir .Ü birlashtiradi, uyushtiradi, safarbar etadi

Goya - ijtimoiy fikr sifatida shakllandı


Goya - muayyan tarzda namoyon bo'ladi

Goya - biror-bir maqsadni ifodalaydi

Goya - amaliy harakatga undaydi

Goya - muayyan mafkuraning asosi bo'ladi

2-ilova



Mavzuni mustahkamlashga qaratilgan

«Blis-so'rov» savollari

No	Savollar	Javoblar
1.	Foyaning ma'nosini tushuntiring?	
2.	Mafkuralarning mohiyati va tarixiy shakllarini bilasizmi?	
3.	3.Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish deganda	

	nimani tushunasiz?	
4.	.Foya vaa mafkura tushunchalarining mohiyati-mazmuni	
5.	2.Foya va mafkuralarning inson va jamiyat hayotiga ta'siri bormi?	

O'quv materiallar

1. Ezgu, bunyodkor g'oya va mafkura barcha insonlarning hayoti mazmunini, orzu istaklarini ifodalaydi. Har bir inson, jamiyat o'z oldiga muayyan bir maqsad qo'yadi va unga erishish uchun harakat qiladi. Inson maqsadlari jamiyat manfaatlariga mos kelishi, taraqqiyot yo'li va istiqbolini belgilab beradigan muayyan ezgu g'oya mafkurasida aks etishi o'ta muhimdir. O'z mustaqil fikri va sobit iymone'tiqodga ega emaslik esa ertangi kuniga ongsiz odamlarning paydo bo'lishiga olib keladi.O'z e'tiqodiga ega bo'lмаган kelajagini yorqin tasavvur qilib muayyan ezgu maqsad sari faol harakat qilmaydigan insonlar yashaydigan jamiyatda o'zaro ishonch, osoyishtalik va barqarorlikka turli tahdidlar bo'lishi tabiiy. Turli nosog'lom kuchlar o'z manfaatlarini ko'zlab begona va yovuz g'oyalarni bu yerda yashaydigan odamlar hayotiga, turmushiga, ongi va qalbiga turli yo'llar bilan singdirishga, odamlarga ma'naviy-ruhiy ta'sir o'tkazishga harakat qiladi.

Darhaqiqat, inson va jamiyat hayoti muayyan fikrlar, g'oyalar bilan uzviy bog'liq mafkura inson hamda jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi va uzluksiz takomillashib, rivojlanib, davrlar o'tmishi bilan o'zgarib boradi. Shu sababli, inson, jamiyat taraqqiyotida g'oya va mafkuraning o'rni hamda ta'sirini o'rganish barcha davrlarda muhim ahamiyatga ega. Har qanday jamiyat o'z taraqqiyotida muayyan fikrlar, g'oyalar va mafkuralar bilan o'zaro bog'iq holda faoliyat ko'rsatishi tabiiy va qonuniy jarayondir.

Inson va jamiyat hayotida muhim o'zgarishlarni amalga oshirilishida muayyan g'oyalar alohida o'rinni tutadi. Jamiyat taraqiyotining ma'lum davrlarda tezlashuvi yoki sekinlashuvi, jamiyat hayotida ijobjiy yoki salbiy holatlarning ro'y berishi jamiyat qanday g'oyalar hukmronlik qilishi, ular qanday kuchlarni harakatga keltirishi, kimlarning, ya'ni qaysi bir ijtimoiy qatlarning manfaatlariga xizmat qilishiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Biz avvalo g'oya tushunchasining mohiyatini anglab yetmog'imiz zarur. Inson o'zining ongi, aql-zakovati, iymon-e'tiqodi va ijodiy mehnati bilan boshqa barcha tirik mavjudotlardan farq qiladi.

Inson tafakkuri voqyelikni idrok etish mobaynida turli fikrlar, qarashlar, g'oyalar va ta'limotlar yaratadi. Demak, birinchidan, g'oya inson tafakurining mahsulidir.

Ikkinchidan, g'oya oldin mavjud bo'lмаган, o'zida yangilikni tashuvchi fikrdir.

Uchinchidan, oldin g'oya paydo bo'ladi, undan keyin g'oya asosida mafkura, mafkura asosida tizim, siyosat paydo bo'ladi.

Ilmiy – falsafiy adabiyotlarda «g'oya», «mafcura», «ideya» va «ideologiya» tushunchalari ishlatilmoqda. Ideya va ideologiya ko'proq G'arb davlatlarida hamda rus tilidagi manbalarda uchraydi. «Ideya» iborasi yunon tilidagi «idea» so'zidan olingan, «ideologiya» so'zi uchun o'zak bo'lib hisoblanadi va tushuncha yoxud fikr ma'nosini anglatadi. Ideologiya (idea – g'oya, logos - ta'limot) atamasi esa g'oyalar to'o'risidagi ta'limotni anglatadi va ikki xil ma'noda ishlatiladi:

- g'oyalarning mazmunini, shakllanishi, ahamiyati to'g'risidagi bilimlarni ifodalaydi va ilmiy soha hisoblanadi;
- muayyan g'oyani amalga oshirish, maqsadga yetish usullari, vositalari, omillari tizimini anglatadi.

Sog'lom va nosog'om, ezgu hamda yovuz, bunyodkor yoki buzg'unchi g'oyalar bo'lishi mumkin. G'oyalarning oddiy fikrlardan farqi yana shundaki, bular garchi tafakkurda paydo bo'lsa-da, keng jamoatchilikning maqsadlarini ifoda etadi. Ularning ishonchi va e'tiqodiga aylanib, e'tirof etilganligini bildiradi, inson va jamiyat ruhiyatiga, hatto tub qatlamlariga ham singib boradi. G'oya shunday quvvatga egaki, u odamning ichki dunyosigacha kirib borib uni harakatga keltiruvchi, maqsad sari yetaklovchi ruhiy-ahloqiy kuchga aylanadi. Ularni muayyan maqsadga yo'naltiradi, safarbar etadi. Ularni jipslashtiradi, hamjihat va hamkorlikka undaydi. G'oyaning ijtimoiy mohiyati shundaki u qanaqa g'oya bo'lmasin ijtimoiy xarakterga ega. Muayyan g'oyalar, odatda, alohida olingan shaxs ongida shakllanadi. Ma'lumki bir muddatdan keyin esa jamiyatning turli qatlamlariga tarqaladi, turli elatlar va millatlar orasida yoyiladi. Mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yangi avlod jamiyatda g'oyalar ta'sirida tarbiyalanadi. Muayyan qarashlar va g'oyalarni o'z e'tiqodiga singdiradi, o'z navbatida yangi g'oyalarni yaratadi va targ'ib qiladi.

G'oyaning eng muhim xususiyati – insonni va jamiyatni taraqqiyot sari yetaklaydigan, ularni harakatga keltiradigan, safarbar etadigan kuch ekanidadir.

Inson tafakkurining mahsuli sifatida g'oya milliy-ma'daniy merosni, umuminsoniy qadriyatlarni, ijtimoiy-ma'naviy hayotni, tevarak-olamni o'rganish, bilish jarayonida vujudga keladi. Ijtimoiy ongning barcha shakllari ilm-fan, falsafa, din, san'at va badiiy adabiyot, axloq, siyosat va huquq-muayyan bir g'oyalarni yaratadi, ularga tayanadi va ularni rivojlantiradi. Mazmuni va namoyon bo'lish shakliga qarab, g'oyalarni bir qancha turlarga ajratish mumkin:

- Ilmiy g'oyalalar; falsafiy g'oyalalar; diniy g'oyalalar; badiiy g'oyalalar; ijtimoiy-siyosiy g'oyalalar; milliy g'oyalalar; umuminsoniy g'oyalalar va h.k.

1. Ilmiy g'oyalalar – fan taraqqiyotining samarasi, ilmiy kashfiyotlarning natijasi sifatida paydo bo'ladigan, turli fan sohalarining asosiy tamoyillari, ustuvor qoidalarini tashkil qiladigan ilmiy fikrlardir.

Fan taraqqiyoti uzlucksiz va cheksizdir. Bu jarayonda amaliyotda tasdiqlanmagan, eskirmagan qarashlar yangi ilmiy g'oyalalar bilan o'rinn al mashaveradi.

2. Falsafiy g'oyalalar har bir falsafiy ta'limotning asosini tashkil etadigan, olam va odam to'g'rsidagi eng umumi tushuncha va qarashlardir. Ular bizni o'rab turgan dunyoni bilish jarayonida kishilik jamiyatining taraqiyoti mobaynida to'plagan bilimlarini umumlashtirish, inson hayotining ma'no-mazmuni, uning baxt-saodati kabi masalalar ustida mulohaza yuritish asosida shakllanadi. Insoniyat tarixida turli xalqlarning aql-zakovat sohiblari, dono faylasuf va ilohiyotchilari turfa xil g'oyalalar yaratganlar.

3. Diniy g'oyalalar deb, har bir diniy ta'limot va oqimning asosini, diniy iymone'tiqodning negizini tashkil etuvchi aqidalarga aytiladi. Ibtidoiy dinlar har bir narsalar jonli ekani, jonning abadiyligi, but va sanamlarning, tabiiy jism va hodisalarning ilohiy quvvatga egaligi to'g'risidagi qarashlarga asoslangan edi. Masalan, hindlarning diniy tasavvurlariga ko'ra jon ko'chib yuradi, bu hayotda u insonda bo'lsa, keyingi hayotda boshqa jonzostga o'tishi mumkin. Ilohlarning ko'pligi haqidagi fikrga tayanadigan politizm dinlari vaqt kelib, monoteistik – yakkaxudolik g'oyasi asosidagi dinlarga o'z o'mini bo'shatib bergen.

Yakkaxudolik g'oyasi milliy dinlarda (masalan, iudaizmda), ayniqsa, jahon dinlari-xristianlik va islomda o'z ifodasini yaqqol topgan. Xususan, islom dinida Allohning yagonaligi g'oyasi asosida uning barcha qadilari, ruknlari, talab va majburiyatlar shakllangan.

4. Badiiy g'oyalar – adabiyot va san'at asarining asosiy ma'no-mazmunini tashkil etadigan, undan ko'zlangan maqsadga xizmat qiladigan yetakchi fikrlardir. Ular hayotdan olinadi, badiy talqinlar asosida abyon etiladi, o'quvchida muayyan taassurot uyg'otadi. «Qahramon» larni sevish, ularga ergashish hollari ham shu asosda ro'y beradi.

5. Ijtimoiy-siyosiy g'oyalar har bir xalq va umuman bashariyatning orzu-umidlarini, maqsad-muddaolarini ifodalaydi, erkin hayot va adolatli tuzumni tarannum etadi.

Milliy g'oya – inson va jamiyat hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar, g'oyalar majmuidir. Ozodlik va mustaqillik, adolat va haqiqat, tinchliksevarlik va insonparvarlik g'oyalari shular jumlasidandir. Asrlar mobaynida bunday buyuk, o'lmas g'oyalar xalqlarga kuch-quvvat va ilhom bag'ishlab, ularni o'z erki uchun kurashga safarbar etib kelgan.

Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, millat taraqqiyotiga, uning yuksalishiga xizmat qiladigan, xalqlarni jipslashtirib, oliy maqsadlarga safarbar etadigan g'oyalar yuksak g'oyalardir. Odamlar orasiga nifoq, xalqlar o'rtasiga nizo soladigan, kishilarni turli taraflarga ajratib, adovat qo'zg'aydigan tuban buzg'unchi g'oyalarga misol bo'ladi. Aslida, bunday qabih niyat va soxta shiorlarni g'oya deb atash ham shartlidir. Qaysi ijtimoiy birlik yoki qatlam orasida tarqalgan, qanday aholi guruhlari yoki elat-millatlarni harakatga keltirayotganiga qarab ham g'oyalarni turlarga ajratish mumkin.

G'oyani moddiylashtiruvchi, amaliyotga aylantiruvchi kuch kim ekaniga qarab, sinfiy g'oya, milliy g'oya, umumxalq g'oyasi, umuminsoniy g'oyalar ham mavjud bo'lishi mumkin. Alabatta, muayyan bir xalq ommasini ma'lum bir tarixiy sharoitda ezgu harakatga undaydigan g'oya mazmunan umuminsoniy bo'lishi ham yoki tor manfaatlarni ko'zlaydigan sinfiy g'oya jamiyat va inson manfaatlariga zid, tajovvuzkor bo'lishi ham mumkin.

Ezgu g'oya – inson tafakkurida vujudga keladigan, muayyan fikrlarning ijtimoiy xarakterga ega bo'lган, ruhiyatga kuchli ta'sir o'tkazib jamiyat va odamlarni harakatga keltiradigan ularni bunyodkor maqsad – muddao sari yetakladigan ulug'vor fikrlardir.

Bunyodkor g'oya deb, insonni ulug'laydigan, uning kuch-g'ayrati va salohiyatini oshirib xalqi, Vatani insoniyat uchun foydali ishlar qilishga safarbar etadigan, o'zida taraqqiyot, ma'rifat, do'stlik, tinchlik, adolat, hallolik, poklik kabi ezgu maqsadlarni mujassam etadigan g'oyaga aytildi.

«Mafkura» tushunchasi adabchadagi «mufakkir» «mufakkiratun» so'zlaridan olingan bo'lib, chuqur ma'noni, teran mazmunli fikr demakdir. Mafkura tushunchasini ta'riflashda falsafiy adabiyotlar va lug'atlarda bir qancha fikrlar beriladi. Mafkura tushunchasiga faylasuf olimlar tomnidan berilgan ta'riflar shakl va mazmun jihatidan har xil.

Mafkuraga jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, falsafiy, ilmiy qarashlar majmuidir, - deb ta'rif beriladi. Ularning barchasida jamiyatdagi muayyan siyosiy, falsafiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, ilmiy qarashlar, fikrlar, g'oyalar majmui sifatida asoslab beriladi. Demak, mafkura – muayyan ijtimoiy guruh yo qatlamning, millat yoki davlatning, jamiyatning ehtiyojlarini maqsad va intilishlarini ifoda etadigan g'oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir. Unda manfaatlari ifodalangan ijtimoiy kuchlar va qatlamlarning o'tmishi, bugungi kuni va istiqboli o'z ifodasini topadi.

Har qanday nazariya yoki ta'limot bir tizimga solingan g'oyalar majmuidan iborat bo'ladi. Shu sababli dunyoqarashning negizini va muayyan ishonya – e'tiqodning asosini ham g'oyalar tashkil etadi. Odamlar, ijtimoiy sinf va qatlamlarning millat hamda davlatlarning manfaatlari va maqsadlari ham g'oyalarda ifoda etiladi. O'z oldiga qo'ygan maqsadi, qanday jamiyat qurmoqchi ekani, bunga qanday yo'llar bilan erishmoqchi bo'layotgani haqidagi g'oyalar tizimi har bir millat, xalq va jamiyatning milliy mafkurasining asosini tashkil etadi.

«G'oya» va «mafcura» tushunchalari bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ularni aynanlashtirmaslik kerak. Nima sababdan?

Birinchidan, mafkura g'oyaga nisbatan mazmunan kengroq tushunchadir?

Ikkinchidan, har qanday mafkurada ijtimoiy voqyelikni saqlab qolish yoki o'zgartirishga qaratilganlik, ya'ni maqsadlar botiniy emas, balki zohiriyl tarkibda mavjud bo'lishini va mafkuraning o'zagini tashkil etishini ta'kidlash, joiz.

Uchinchidan, har qanday ijtimoiy g'oya faqat bir mafkuraviy qarashlar doirasidagina o'zining uyushtiruvchilik va yo'naltiruvchilik salohiyatini, jozibadorlik kuchini namoyon qila olishi mumkin. O'zbekiston xalqining milliy istiqlol mafkurasini jamiyatni jipslashtirishga, buyuk kelajak yo'lida hamjihatlik ilan harakat qilishga, barpo etilayotgan erkin fuqarolik jamiyatida har bir yurtdoshimizning o'ziga xos o'rni bo'lishiga erishishga safarbar etadi.

Prezident Islom Karimov jamiyat mafkurasiga shunday ta'rif bergen: «Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning asoslangan, ayni vaqtda shu xalq,

shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechasi va ertangi kun o'rtasida o'ziga xos ko'prik bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman». Binobarin, milliy mafkura har qanday xalqni – xalq, millatni – millat qiladigan, uning yo'li va maqsadlarini aniq-ravshan charog'on etadigan mayoqdir.

Insoniyat tarixida turli shakldagi juda ko'plab mafkuralar yaratilgan, xilma-xil ijtimoiy-siyosiy kuchlar, o'z g'oyalari va ta'limotlari orqali, maqsad va niyatlariga yetishmoq uchun intilgan. Mafkuralar mohiyatiga ko'ra, falsafiy, dunyoviy, diniy va boshqa turli ta'limotlar asosida yaratiladi.

Turli – tuman ijtimoiy-siyosiy kuchlar o'z mafkuralarini yaratishda siyosiy g'oyalar bilan birga, diniy oqimlar va ilm-fan yutuqlariga tayanishi, ulardan nazariy asos sifatida foydalanishi mumkin.

Mafkuraning falsafiy ildizlari deganda, uning falsafa ilmi xulosalariga asoslanishi nazarda tutiladi. Bunda har bir xalqning o'ziga xos falsafiy merosi, qarashlari, g'oyalari ularning maqsadlarida o'zining ifodasini topadi. Sharq va G'arb falsafasi bunga yorqin misoldir. Masalan, mazkur mafkuralar Rim imperiyasi parchalangandan keyin o'z davlatchiligidagi ega bo'lgan xalqlarning o'ziga xos qadriyatlari va mentaliteti zaminida vujudga kelgan milliy falsafalar asosida shakllanadi. Shu bois, o'sha davrdagi italyan, ingliz, fransuz, nemis falsafasi o'zi mansub bo'lgan jamiyatni birlashtirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, bu milliy maktablar zaminida vujudga kelgan falsafiy ta'limotlar, ma'rifiy qarashlar insoniyat madaniyati xazinasiga salmoqli hissa bo'lib qo'shildi. Jumladan, haqiqiy milliy xususiyatlarga ega bo'lgan Gegel falsafasi Avtriya-Vengriya imperiyasidan ajralib, mutsaqil yo'lni tutgan Pruss monarxiyasining davlat mafkurasi darajasiga ko'tarilgan edi. Mafkurasining dunyoviy ildizlari ma'rifiy dunyoga xos siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy munosabatlar majmuidan iboratdir. Umum e'tirof etilgan prinsiplar va qonun ustuvorligi, siyosiy plyuralizm, millatlararo totuvlik, dinlararo baqg'rikenglik kabi g'oyalar dunyoviy jamiyatning asosini tashkil etadi. Bunday jamiyatda insonning haq-huquqlari va erkinliklari, jumladan, vijdon erkinligi ham qonun yo'li bilan kafolotlanadi. Masalan, O'zbekistonda mustaqillik yillarda dindan jamiyatni ma'naviy yangilashda, yoshlarning axloqiy tarbiyasida foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. Diniy qadriyatlar tiklandi – Avesto ona tilimizda chop etildi, islom dinining muqaddas kitobi Qur'on, Hadislar, Imom Termizi, Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoni, abdulxoliq G'ijduvoni, Xo'ja Axror Vali yubileyлari o'tkazilib, yodgorlik majmualari tiklandi, boy ma'naviy meros o'rganilib, ulardan jamiyatimiz taraqqiyoti yo'lida keng foydalanilmoqda. Ushbu xayorli ishlar mamlakatimizda diniy meros va

qadriyatlardan oqilona foydalanilmoqda. Dunyoviylik degani, bolsheviklar va aqidaparastlar aytganidek, dinni inkor qilish yoki «dahriylik» degani emas, balki undagi ahloqiy va falsafiy ta’limotlardagi ezgu g’oyalardan, qadriyatlardan o’rinli foydalanish uchun keng imkoniyat yaratishdir.

Bu haqda Prezident I.A.Karimov ta’kidlaganidek, «dunyoviylik», ayrim aqidaparast kimsalarning da’volaridan farqli o’laroq, aslo dahriylik emas. Biz bunday noto’g’ri va g’arazli talqinlarga mutlaqo qarshimiz».

Darhaqiqat, yaqin o’tmishimizda – dahriylik siyosati hukmronlik qilgan, diniy qarashlar va qoidalar xurofot deb atalgan. Diniy aqidaparastlar esa dunyoviy ilmlarni dahriylik, xudosizlik deb insonni e’tiqodidan ayirishga urindi.

Mafkuraning diniy ildizlari – inson ongi va ruhiyati bilan uzviy bog’liq ekani va shu bois uning g’oyaviy ildizlari diniy ta’limotlariga borib taqalishi tushuniladi. Ya’ni, ko’pgina mafkuralarda Avesto, Veda ыiv Upanishadlar, Injil va Qur’on kabi kitoblarda zikr etilgan ezgu g’oyalar muayyan darajada o’z ifodasini topganini ko’ramiz.

Dunyoviy va diniy qadriyatlar bir-birini boyitib borgan sharoitda taraqqiyot yuksak bosqichga ko’tarildi. Bunga bashariyat tarixida o’chmas iz qoldirgan Imom Buxoriy va Muso Xorazmiy, Imom Moturidiy va Abu Rayhon Beruniy, Imom G’azzoliy va Abu Nasr Forobiy singari buyuk zakovat sohiblari yonma-yon yashab faoliyat ko’rsatgan davr yorqin misol bo’la oladi. Ilmiy kashfiyotlar bugungi kunda ham mafkura rivojiga katta ta’sir o’tkazadi. Zamonaviy fan yutuqlari, jumladan, kosmonavtika, bionika, biofizika, kibernetika, axborotlashtirish sohasidagi olamshumul yangiliklar, klonlashtirish, insonning gen-nasl xaritasini aniqlash kabi buyuk kashfiyotlar odamlar tasavvurini keskin o’zgartirmoqda.

Shu sababli ham, ilm-fan va madaniy borasidagi yutuqlrdan oqilona foydalanish uchun ham jamiyatga sog’lom g’oya, sog’lom mafkura kerak.

Har qanday jamiyat o’ziga xos rivojlanish yo’lini tanlar ekan, oldiga muayyan maqsad va vazifalarni qo’yadi. Zero, bu vazifalar jamiyat, davlat, xalq va millat taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy ma’rifiy, ta’im-tarbiya va mafkuraviy jarayonlarning uzviy birligi asosida amalga oshadi.

Inson hyech qachon tashqi dunyodan, o’zini qurshab olgan olamdagagi o’zgarishlar, ry berayotgan hodisalar, voqyea jarayonlardan ajralib qolgan, ularni his etmagan holda, ularning ta’sirisiz yashay olmaydi. Xalqlar, millatlar, ijtimoiy-siyosiy kuchlar faoliyati tufayli sodir bo’lgan turli hodisa va jarayonlar odamlar ongi, tafakkuri va dunyoqarashiga ta’sir etadi.

Hayotda maqsadi, yuksak g'oyasi, ezgu orzu-intilishlari bo'limgan inson va jamiyat a'zolari tabiiy ehtiyojlar doirasi bilan chegaralanib, ma'naviy yuksaklikka erishish qiyin. Ayrim yovuz kuchlar ta'sir o'tkazish orqali o'z g'arazli niyatlariga yetish maqsadida foydalanishlari mumkin. Shu sababli barcha davrlarda inson va jamiyat o'z maqsad-mulddaolarini ifoda etadigan manfaatiga zid bo'lgan zararli va begona g'oyalar qarshi turadi. Har bir xalq, milat va jamiyat o'z manfaatiga xizmat qilib, uning taraqqiyotini ta'minlashga yordam beradigan muayyan g'oyaga ehtiyoj sezadi.

Binobarin, g'oya muayyan millat va xalqning maqsad-muddaolari, manfaatlari zamirida shakllanadi hamda takomillasha boradi. Milliy istiqlol g'oyasi ham millat manfaatlarini, xalqning orzu-istiklarini o'zida mujassamlashtiradi. U o'zining hayotbaxsh g'oyalari, buyuk maqsadlari bilan o'z kuch-g'ayrati, aql-zakovati va hatto hayotini buyuk g'oyalar yo'lida baxsh etishga tayyor komil insonlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Insongiyat tarixidan ma'lumki yer yuzida dastlabki odamzod paydo bo'lib, uning urug', qabila, jamoa yoki xalq sifatida shakllanishi ro'y bergan dastlabki davrlardayoq ularni birlashtirib turadigan umumiyl g'oya va mafkuraga ehtiyoj tug'ilgan. Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «...Chunki, mafkura – jamiyatda yashaydigan odamlarning hayot mazmunini, ularning intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi». Darhaqiqat, barcha davrlarda har bir davlat, xalq, jamiyatning o'ziga xos g'oyasi va mafkurasi bo'lgan. Chunki jamiyatning ,xalqning o'z oldiga qo'ygan aniq maqsadi uni amalga oshirishda jamiyat ahlini birlashtiradigan, safarbarlikka undaydigan g'oyasi va mafkurasi bo'lmasa, u muqarrar ravishda halokatga mahkum bo'ladi.

G'oya, mafkura jamiyatning o'z oldiga qo'ygan aniq maqsadi bo'lib, busiz jamiyat o'z yo'lini yo'qotadi. «Maqsad degani, - deb yozgan edi Prezident I.A.Karimov, - xalqni, millatni birlashtiruvchi, yo'lga boshlovchi bamisoli bir bayroq. Bu bayroq butun ruhini, g'urur-iftixonini, kerak bo'lsa qudratini, orzu-intilishlarini mujassamlashtiradigan ulug' kuchdir. Davlatimizning, xalqimizning, el-yurtimizning maqsadi o'zining ulug'vorligi, hayotiyligi va haqqoniyligi bilan hammamizni jalb etadigan bo'lmosg'i lozim. Toki bu maqsad xalqni-xalq, millatni-millat qila bilsin, qo'limizda yengilmas bir kuchga alansin».

Mafkuraning hayotiyligi odamlarning, millatning, jamiyatning milliy manfaatini, orzu-intilishlarini qay darajada aks ettira oladigan bosh va asosiy g'oyalar, bu g'oyalar ularning turmush tarzi, dunyoqarashi, tabiatiga qanchalik mos bo'lishi bilan belgilanadi. Hayot sinovlariga bardosh beradigan, odamlarning ezgu maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, ularga ma'naviy-ruhiy quvvat beradigan

mafkurani ko'pchilik qabul qiladi. Faqat shunday holdagina u kuchli ruhiy qudratga ega bo'ladi. Shu sababli ham mafkura barcha davrlarda jamiyatni yuksak va bunyodkor maqsadlar yo'lida birlashtrib, jamiyat ahli o'rtasida sog'lom munosabatlarni shakllantirgan, hamda ezgu orzular, maqsad-muddaolariga erishishda ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan omil vazifasini bajarib kelgan. Shuning uchun ham g'oya va mafkura barcha insonlar, xalqlar, jamiyat va davlat oldida turgan muhim vazifalarni amalga oshirishda yordam beradigan, turli sohada faoliyat yuritadigan jamiyat halini birlashtirib, ularni umumiy maqsad sari safarbar etadigan buyuk kuchdir.

Shu sababli ham insonlar, xalqlar, jamiyat hayotida mafkura muhim rol o'ynaydi. Mafkuraning hayotbaxsh kchi, avvalo, insonning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini qanday tushunish va uni qanday ijtimoiy maqomda tasavvur etishiga bog'liq. Chunki, insonni ijtimoiy harakat vafaoliyatga undash va shu tariqa ko'zlangan muayyan maqsad-vazifalarga erishish dunyodagi barcha ezgu mafkuralarning ma'no-mohiyatini tashkil etadi.

Shu sababli ham milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va prinsiplari tizimida insonning jamiyatda o'rni bunyodkor kuch sifatida belgilangan. Istiqlolning bosh g'oyasi ham, asosiy g'oya va tushunchalari ham bunyodkorlik falsafasi bilan yo'g'rilgan. Chunki bunyodkorlik – xalqimizning eng olajanob fazilati. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, o'zbek tom ma'noda bunyodkordir, do'ppisida suv tashib bo'lsa ham daraxt ko'kartiradi. Darhaqiqat, mustaqillik yillarda mamlakatimizda iqtisodiy, ijtimoiy siyosiy-madaniy, ma'naviy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar, erkinlashtirish jarayonlari bunyodkorlik ishlariga yorqin misol bo'ladi.

2. Mafkuraviy plyurazilm (lot. Pluralis – xilma-xillik, rang-baranglik) – ijtimoiy – siyosiy hayotda turliqatlam, partiya, guruhlar manfaatlarini ifoda etuvchi g'oyaviy rang-baranglikni, qarashlar va fikrlar xilma-xilligini ifodalaydi.

Inson va jamiyat hayotida g'oyalar va mafkuralar xilma-xilligining namoyon bo'lishi ijtimoiy-ma'naviy ehtiyoj ifodasidir. Jamiyatda g'oya va mafkuralar xilma-xilligining kuzatilishi insonlarning tabiat-jamiyat hodisalari, olam va odam to'g'risidagi fikrlari turlichaligi bilan izohlanadi. Umumiyl g'oyaga e'tiod qilish tufayli turlicha ijtimoiy guruhlar shakllanadi. Ularning maqsad-muddaolari, orzu-istiklari, manfaatları bir-biridan farqlanishi mumkin. Tabiiyki, ijtimoiy guruhlarning maqsad va manfaatlarini aks ettiradigan ularga ma'naviy-ruhiy kuch bag'ishlaydigan g'oyalarni amalga oshirish yo'llari ham xilma-xil bo'ladi.

Ezgulik, yaratuvchanlik, bunyodkorlik, hamkorlik, ozodlik, erkinlikni qaror toptirishga qaratilgan fikrlar mamlakatda osoyishtalik, xalqlar o'rtasida totuvlik,

barqarorlikka xizmat qiladi. Ular mamlakat taraqqiyotida muhim o’rin tutadi. Ezgulik va yaratuvchanlikni targ’ib qiluvchi fikrlar ezgu va bunyodkor g’oyalarning paydo bo’lishiga sabab bo’ladi. Amir Temurning parokanda bo’lgan xalqni birlashtirish va shu asosda markazlashgan davlat tuzish to’g’risidagi fikrlari negizida mamlakat obodligi, xalq osoyishtaligini ta’sinlashga yo’naltirilgan bunyodkorlik g’oyalari paydo bo’ldi. Buzg’unchilikka undovchi yovuz fikrlar jaholat urug’ini sepib urug’ni targ’ib qiladi. Buzg’unchi fikrlar jamiyatdagi muayyan guruhrar, qatlamlarning ongiga singib uning yovuz manfaatlarini ifodalaydigan g’oyaga aylanishi mumkin. U holda jamiyatda beqarorlik muhiti vujudga kelib, odamlar boshiga katta kulfatlar yog’ilishi mumkin.

Jamiyatda fikrlar xilma-xil bo’lgani va bir-biridan farq qilganidek, g’oyalalar ham turli-tuman bo’lib, mohiyatiga, o’z oldiga qo’ygan maqsadi va qaysi ijtimoiy guruhlarning manfaatiga xizmat qilishiga qarab bir-biridan farq qiladi. G’oya bilan g’oyaning bir-biriga o’xshamasligi va ular o’rtasida farq bo’lishini tabiiy jarayon deb qarash kerak. Qaysi ijtimoiy qatlarning maqsadini ifodalashi va kimlarning manfaatiga xizmat qilishiga, qanday yo’nalishga egaligiga ko’ra ham rag-barang bo’lishi mumkin. Lekin g’oya va mafkuralarning xilma-xilligi va bir-bridan farq qilishi tabiiy sifatida qaralishi bilan birga, ularni bir-biriga yaqin mushtarak tomonlari, ayni paytda, bir-biriga mutlaqo to’g’ri kelmaydigan jihatlari ham bo’ladi.

Shubhasiz, ma’lum bir g’oya va mafkurani jamiyat a’zolari ongiga majburan singdirish va unga rioya qilishni barchadan talab qilish – jiddiy xatodir. Nima uchun? Sababi, masalan, sobiq «Ittifoq davri» da kommunizm g’oyasini mafkura yordamida jamiyatning barcha a’zolari qaysi qatlam, ijtimoiy guruh, qaysi millatga va qaysi dinga mansubligi va muddaolari e’tiborga olinmasdan, ular uchun majburiy qilib, dahriylikni da’vo qildi va oqibatda bu g’oyaning hayotiy ekanligiga odamlarda shubha va ishonchszilik ortib bordi.

Ma’lumki, mafkura muayyan bir ijtimoiy guruhning, millatning, xalqning, jamiyatning manfaatlarini o’zida mujassamlashtirgan qarashlar, g’oyalalar tizimidir. Bu tizim o’zining falsafiy, siyosiy huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy negizlariga ega. Demak, mafkura o’z mohiyati va vazifasi jihatidan nihoyatda rang-barang bo’lishi tabiiydir. Xuddi jamiyat hayoti turli qatlamlar, yo’nalishlar va darajalarga ega bo’lganidek, mafkura ham xilma-xil bo’lishi mumkin.

Yer yuzidagi barcha insonlar o’z fikr-muloazalariga ega bo’lib amaliy faoliyat yuritadilar. Shu sababli yunon faylasufi Aristotel ikkita inson ayni bir xilda fikrlamaydi, ularning olam haqidagi tushunchalari, fikrlari xilma-xildir deganda, haq edi. Darhaqiqat, dunyodagi xalqlar, millatlar, mamlakatlar va davlatlar ham bir-biridan farq qiladi. Ularning diniy e’tiqodi, milliy madaniyati, demakki mentaliteti,

maqsadlari va taraqqiyot yo'llari ham rang-barangdir. Tabiiyki, ularning orzu-istiklari, hayotiy ideallari, muddaolarini aks ettiradigan g'oyalar va ularni amalgaloshishda ma'naviy-ruhiy kuch bag'ishlovchi mafkurasi ham xilma-xil bo'lisi tabiiydir. Darhaqiqat, dunyodagi har bir davlat, xalq va millat, jamiyatning maqsadi va manfaatlarini ifodalaydigan o'ziga xos g'oyasi va mafkurasi mavjud.

Mamlakatda ilg'or g'oyalar, mafkuralar qancha ko'p bo'lsa, ya'ni mafkuraviy plyurolizm hukmon bo'lsa taraqqiyotning samarali yo'lini tanlab olish uchun imkoniyat shunchalik keng bo'ladi. Fikrlar erkinligi va xilma-xilligi mafkuralarning mazmun jihatidan boyishiga, bir-birini to'ldirishiga xizmat qiladi.

Mustaqil O'zbekiston mafkura yakkahokimligidan voz kechdi va milliy taraqqiyot uchun keng yo'l ochdi. Mamlakatimizda mafkuralar va fikrlar xilma-xilligiga alohida e'tibor berildi. G'oya va mafkuralar xilma-xilligi ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladigan yangidan-yangi g'oyalarning paydo bo'lismiga turli xalqlar, elatlar, millatlar va siyosiy institatlarning manfaatlarini umumiylar tarzda ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, u mamlakatimizda ko'ppartiyaviylik tizimiga ham sharoit yaratadi. Siyosiy partiyalar esa o'zlari mansub bo'lgan qatlamlar, siyosiy guruhlarning manfaatlari, intilishlari, orzu-umidlarini umumlashtirgan holda o'z harakat dasturlari orqali namoyon qiladi.

Shu bilan bir qatorda, tarixiy-taraqqiyotning mas'uliyatli davrlarida jamiyatdagi barcha ijtimoiy guruhlar, milat yoki siyosat yo'nalishlarini o'zida mujassamlashtiruvchi, ko'pchilikka maqbul, umum tomonidan ma'qullanadigan, jamiyatning asosiy manfaatlarini o'zida mujassamlashtiradigan mafkuralar ham bo'lisi mumkin. Masalan, milliy ozodlik kurashi mafkurasi, milliy mustaqillik mafkurasi va hokazo. Umummiliy g'oya jamiyat a'zolarining, xalq ommasining tub manfaatlarini va ko'nglidagi orzu-intilishlarini ifoda etgani, millatlarning birdamligi, jamiyatning qudratini mustahkamlashi, fuqarolar o'rtasida bag'rikenglik munosabatlarini ifoda etgani sababli odamlarni ulkan maqsadlar yo'lida birlashtiradigan joziba kuchiga ega bo'ladi. Bunday g'oya jamiyatda barqarorlikni ta'minlaydi. Tarix saboqlari shundan dalolat beradiki, fikrni erkin ifoda etadigan shaxs, guruh yoki ijtimoiy qatlam, avvalo, o'zining aniq-ravshan, asosli qarashlariga ega bo'lisi, o'z nuqtai nazarining oqibati uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi, bahs-munozara madaniyati talablariga amal qilish lozim. Ya'ni fikrlar rang-barangligi va qarashlar xilma-xilligi muayyan jamiyatning milliy manfaatlariga, umumbashariy qadriyatlarga, joriy qonunchilik normalariga, ahloqiy mezonlarga zid bo'lmasligi lozim. Shu sababli jamiyatda bunyodkor-yaratuvchanlik g'oyalarini ilgari suruvchi va hayotga tadbi etuvchi kuchlar jamiyat ahli o'rtasida o'z g'oyalarini singdirishga urinsalar, ko'pchilitk ongiga ijobiy ta'sir etib, jamiyatda barqarorlik, tinchlik

osoyishtalik va yaratuvchanlik ishlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, bu ilk o'rta asrlarda mamlakatimiz hududida ilm-fan, din, madaniyat, hunarmandchilik rivojlanishi tufayli, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma'naviy sohalarda uyg'onish sodir bo'lib, ko'plab yetuk allomalarining yetishib chiqishiga olib keladi. Ular o'z ta'limotlarida buyuk g'oyalalar yaratib, jamiyat taraqqiyotiga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi. Darhaqiqat, bunyodkorlik g'oyalari insonni ulug'laydi, uning ruhiga qanot bag'ishlaydi.

Jamiyatda ezgu g'oyalalar barcha davrlarda yuksak orzular bilan yashashga, oljanob maqsadlar yo'lida e'tiqod bilan kurashishga o'rgatadi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha sohalardagi bunyodkorlik ishalri bunga yorqin misoldir. Inson va jamiyat bor ekan, ezgulik g'oyalaring ziddi bo'lган zulm va zo'ravonlik, qabohat va jaholat yangi-yangi shakllarda namoyon bo'lishi ham mumkin. Lekin ular insoniyatningadolat, tenglik, tinchlik, qardoshlik va farovonlik g'oyalariaga tayanib, yuksak maqsadlar sari intilishlarini to'xtata olmaydi. Ezgu va yuksak g'oyalalar odamlarni hamisha oljanob maqsadlar sari yetaklayveradi. Bunyodkorlik g'oyalari yurti obod, xalq hayotini faravon qilishdek oljanob maqsadlar bilan ajralib turadi. Ular insoniyat taraqqiyotiga erishgan davrlardan buyon jamiyat hayotining eng ezgu g'oyalari sifatida yashab kelmoqda.

3. Bunyodkor g'oya – insonni ulug'laydigan, uning kuch-g'ayrati va salohiyatini oshirib xalqi, Vatani, butun insoniyat uchun foydali ishlar qilishga safarbar etadigan, o'zida taraqqiyot, ma'rifikat, do'stlik, tinchlik, adolat, halollik, poklik kabi ezgu his-tuyg'ularning urug'ini mujassam etadigan g'oyadir.

Insoniyat tarixi xilma-xil g'oya va mafkuralarning vujudga kelishi, bir-biri bilan munosabatidan iborat uzlusiz jarayondir. Bu jarayonda turli g'oyalalar u yoki bu kuchlarga xizmat qilish, o'ziga ishongan kishilarni qanday maqsadlar tomon yetaklashiga qarab bir-biridan farqlanadi.

Jahon tajribasiga nazar tashlasak, butun dunyo taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan nazariy ta'limot va mafkuralarni yaratish uchun insoniyat tarixining turli davrlarida ulkan aql-zakovat, iste'dod va teran tafakkur sohiblari mislsiz zahmat chekkanini ko'ramiz. Suqrot va Platon, Konfusiy va Zardusht, Amir Temur, Alisher Navoiy, Maxatma Gandhi kabi mutafakkirlarning faoliyati buning yaqqol tasdig'idir.

Ularning har biri o'z davrida o'zi mansub xalqni birlashtiradigan ulkan ahamiyatga molik g'oyalarni yaratganlar. Bu g'oyalarga tayanib bunyodkorlik yo'lida, ezgu maqsadlarga erishish uchun hormay-tolmay mehnat qilganlar. Bu borada insoniyatga ezgulik g'oyalarni targ'ib qilgan Zardusht ham, «O'zini anglamoq saodat» ekanligini anglatgan Suqrot ham, «xalqni yakqalam qildim», deya

insonparvarlik,adolat g'oyalarini kuylagan va qoniqish hissini tuygan Navoiy ham, Markazlashgan davlat tuzib, xalqni birlashtirib, uningadolat kuchiga ishonchini mustahkmlagan Amir Temur ham, Hindiston ozodligi yo'liga umrini baxshida alagan, ma'rifat yo'li bilan g'olib chiqqan Maxatma Gandhi ham bugungi avlodlar uchun ibrat namunasi bo'lgan ulug' insonlardir. Jamiyatda ezgu maqsadlarga xizmat qiladigan mafkuralarga bunyodkor g'oyalar asos bo'ladi.

Bunyodkorlik aql-zakovat, qalb bunyodkorligiga aylanganda chinakam qadr-qimmat kasb etadi. Masalan, sobiq sho'ro davrida insonlar qalbidagi bunyodkorlik tuyg'usini so'ndirgan tuzum o'zicha ko'p ishlarni, ulkan rejalarini amalga oshirish uchun urinib ko'rdi. Lekin qalb bunyodkorga aylanmagani uchun qilingan ishlarda baraka va samara bo'lmadi. Qalb bunyodkorligi esa e'tiqod bilan, pok niyat bilan nafaqat bugunni va ertani, balki olis kelajakni o'ylab yaratishdir. Odamzodga azaldan aql-zakovat bilan qalb bunyodkorligi xos fazilatdir. Uning qalbi bilan qo'li bir maromda ishlasa, haqiqiy mo''jizalar bunyod etiladi. Necha asrlardan buyon dunyonı hayratga solib kelayotgan Misr ehromlari, Shahrisabzdagi Oqsaroy, Samarqanddagi Bibixonim, Registon maydonidagi madrasalar majmui, Tojmahal yodgorligi, Eyofel minorasi, qanchadan-qancha san'at va madaniyat durdonalari – barchasi ana shunday bunyodkorlik namunasidir. Bunday mo''jizalar bizning madaniy merosimizda, Xiva, Buxorodagi betakror obidalarimizda, mumtoz san'at asarlarimizda yuksak axloqiylikka asoslangan urf-odat va an'analarimizda o'z aksini topgan.

Buyuk donishmand bobomiz Bahouddin Naqshband «Diling – Ollohda, qo'ling – mehnatda bo'lsin» deya yaratuvchilikka da'vat etganlarida, har qanday ishni aql va e'tiqod bilan bajarishni nazarda tutganlar. Ushbu shiorda inson ko'nglida Ollohga e'tiqod qo'yib, o'zi halol mehnati bilan tirikchilik o'tkazish va ilm-hunar o'rgatib Vatanni obod qilishga da'vat etiladi. Diniy ishlarni dunyoviy ishlar bilan bog'lab olib borish, dunyoviylik va diniy e'tiqodning mushtarakligi orqali jamiyatda barqarorlik, osoyishtalik va faravonlikka erishish mumkinligi g'oyasi targ'ib qilinadi. Mustaqillik yillarida, O'zbekistonda, Islom dinining ezgu g'oyalari milliy qadriyatlarimiz va turmush tarzimizga chuqur singib bormoqda. Umuman, e'tiqodni faoliyatga, faoliyatni esa e'tiqodga aylantirish xalqimizga xos. Masalan, ya'shilikni, ya'ni oddiy insoniy faoliyatni e'tiqod darajasiga ko'targanimiz yoki Ollohga ishonch-e'tiqodimizni faqat ezgulik yo'lida xizmat qildirishni an'anaga aylanntirganimiz (ya'ni, dinni niqob qilib mutaaassiblikka, jaholatga, buzg'unchilikka berilmaganimiz) – buning tasdig'idir.

Bunyodkor g'oyalar bilan qurollangan kishilar faravon hayot, erkin jamiyat qurish uchun kurash olib borganligi tarixdan ma'lum. Bunday jarayon ijobjiy g'oyalarning tug'ilishiga, ular esa, o'z navbatida, elatlar, xalqlar, millatlar,

manfaatlarini ifodolovchi hayot tarzining shakllanishi uchun asos bo'lgan. Shuningdek, milliy davlatlarning yuzaga kelishida bu g'oyalar yetakchi va yo'naltiruvchi ahamiyat kasb etgan. Buni biz o'zbek davlatchiligi g'oyalarining shakllanishi va takomili misolida ham kuzatishimiz mumkin.

Bunyodkorlik g'oyalari yurtni obod, xalq hayotini farovon qilishdek olivjanob maqsadlar bilan ajralib turadi. Ular insoniyat sivilizasiyasiga erishgan davrlardan buyon jamiyat hayotining eng ezgu g'oyalari sifatida yashab kelmoqda. Prezident Islom Karimovning «O'zbek tom ma'noda bunyodkordir», degan so'zlarida han asha shu boqiy g'oyalarning ma'no-mazmuni o'z ifodasini topgan. Bunday bunyodkorlik xalqimizga ota-bobolaridan merosdir. Insoniyat tarixida odamlar ongi va shuurigaadolat, haqiqat, ezgulik, mehnatsevarlik kabi yuksak g'oyalar urug'ini sepgan zot, payg'ambar Zardusht yaratgan «Avesto» kitobidagi yuksak g'oyalar buyuk vatandoshimiz Zardushtning o'lmas mafkurasi edi.

Qariyb uch ming yil muqaddam – ma'rifat ziyyosini jaholat bulutlari qoplab olgan davrda vatandoshimiz Zardusht yakkaxudolik va ezgulik g'oyalarni targ'ib qilishni boshlagan edi. Zardusht ta'limotida insonni ezgulikka da'vat etuvchi g'oyalar markaziy o'rinni egallaydi.

Ezgulik va yovuzlik kuchlari o'rtasidagi g'oyaviy kurash zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto» da ham bayon etilgan. Unda harbiy to'qnashuvlar, bosqinchilik urushlari, jonivorlarni, hayvonlarni azoblash, odamlarga adolatsizlik, yolg'onchilik, ahdga vafosizlik, hiyonat qilish g'oyalari qoralanib, o'troq, osoyishta hayot kechirishga, mehnatga, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanishga da'vat etadigan g'oyalar ulug'lanadi. Zardushtiylik dinida yer, suv, musaffo havo, ona tabiat e'zozlanadi, quruq yer ochib, uni bog'u rog'ga aylantirgan odam ilohiyot rahmatiga uchraydi, aksincha bog'lar, ekinzorlarni, sug'orish inshootlarini buzganlar katta gunohga qoladi. Zardushtning bunyodkor g'oyalari insonlarni tinch-totuv, halol mehnat qilib Vatanni obod qilishga da'vat etadi.

«Avesto» da vatanparvarlik g'oyasi ulug'lanib, odamlarni barkamol bo'lishga da'vat etilgan. «Menga barkamol va dinogoh, vatansevar va anjumanoro, ahil, ezgu andishali, zulmatdan, tanglikdan qutqaruvchi farzandlar bag'ishla. Toki ular manzil, shahar, o'lka va uning nom hamda ovozasini ko'tarsinlar», deyiladi. Shuningdek, asarda ona zaminni e'zozlash, uni obod qilish g'oyalari targ'ib qilinadi. Jumladan, «Avesto»da yozilishicha, Zaminni hammadan ko'proq baxtiyor qilgan shaxs, hammadan ko'p bug'doy, giyoh va mevali daraxtlar ekkan zotdir! U quruq yerkarta suv chiqargan va suvli shudgor qilgan zotdir...., - deyiladi.

Uzoq zamon ekilmagan va omoch tegmagan zamin baxtsizdir... Kimda-kim zaminni chap va o'ng qo'l bilan, o'ng qo'l va chap qo'l bilan shudgor qilsa, zamin unga faravonlik baxsh etadi... Zamin ham mo'l-ko'l mevalarni in'om etadi.

Yerning shudgor qilinib, sara urug'lar sepilishi, bug'doy maysasining unib chiqishi o'sha yerdagi yovuz kuchlar, devlarning bu yerlarni tark etishi tg'risidagi g'oya Avestoning Vandidat qismiga bag'ishlangan bo'limida quyidagicha berilgan:

«Qachonki egatlarda urug' yetilsa, devlar o'rinalidan qo'padilar.

Qachonki bug'doy gurkirab ko'karsa, devlar dahshatdan titray boshlaydilar.

Qachonki bug'doy un bo'lsa, devlar nola chekadilar. Qachonki bug'doy xirmonga uyulsa, devlar nobud bo'ladilar. Qay bir xonadonda bug'doy bosh chiqarsa, devlar u xonadondan uzoqlashadilar. Qay bir xonadonda bug'doy ombori bo'lsa, go'yo qizdirilgan temir devlar bo'ynini chirmab tashlaydi» («Avesto», 115-bet).

«Avesto» da aks etgan Zardushtning «Ezgu niyat, ezgu so'z va ezgu amalni olqishlayman! Niyat, so'z va amallar ichidan men ezgu niyat, ezgu so'z va ezgu amalni tanlayman. Men barcha qabih andisha, qabih so'z va qabih amaldan yuz buraman», degan hikmatli so'zlari bugungi kunda ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu o'lmas g'oyalalar keyinchalik paydo bo'lган dinlar. Jumladan, xristianlik va islom tomonidan ham qabul qilindi. Demak, bu kitob o'z davrida shakllangan g'oyalalar tizimidan iborat bo'lган jamiyat mafkurasi edi.

Hindistonda paydo bo'lган buddaviylik dini asta-sekin Janubiy, Sharqiy Osiyoda yashaydigan ko'pchilik xalqning mafkurasiga aylandi. Eramizning birinchi asrida Rim imperiyasida shakllangan xristianlik dini jahonning ko'pgina xalqlari va millatlari tomonidan qabul qilindi, ularning ma'naviy hayotiga singdi. VI asrning oxirida Arabiston yarim orolida paydo bo'lган islom dini o'rtadagi ahillik, birodarlik, hamjihatlik, ezgulik, yaratuvchanlik g'oyalalarini targ'ib qilganligi sababli dunyoning yuzdan ortiq mamlakatlari xalqlari o'rtasida tarqaldi, ularning ma'naviy hayoti, turmush tarzi va madaniyati rivojiga ijobji ta'sir ko'rsatadi.

Xitoy va hind mutafakkirlarining jamiyat rivoji haqidagi qarashalri va bunyodkorlik g'oyalari ham Osiyoning «sharqona» ma'naviyatida o'ziga xos o'rın tutadi. Jumladan, buyuk Xitoy mutafakkiri Konfusiyning (mil.av. 551-479) g'oyalari hanuzgacha Xitoy mafkurasida yetakchilik qilib kelmoqda.

Konfusiyning falsafiy va axloqiy g'oyalari markazida inson, uning aqliy va ma'naviy qiyofasi, olamdagи hamda jamiyatdagi o'rni, vazifasi muammolari turadi. Bu g'oyaning asosi jamiyatni har qanday ijtimoiy larzalardan asrab qolish va insonlar manfaatini yuqori qo'yishga qaratilgan. Allomaning maqsadi xalqni mavjud tartib-

qoidalarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash bo'lgan. Bu g'oyaga ko'ra, insonlar jamiyatning tabiiy taraqqiyotiga qarshi chiqmasligi, ya'ni inqilobiy yo'lni tanlamasligi kerak, Konfusiy insoniyat fikr yuritar ekan, odamlar ijtimoiy kelib chiqishi yoki jamiyatdagi mavqyei orqali emas, balki odamiylik,adolatparvarlik, haqgo'ylik, samimiyat, farzandlik izzat-hurmati kabi yuksak ma'naviy fazilatlarga erishishi tufayli kamolotga yetishuvi mumkin deb, hisoblaydi.

Hayotning, borliqning mohiyatini anglash to'g'risidagi buddizm asoschisi Siddxartxa Sautama qarashlari muhim o'rin tutadi. Har qanday insoniy tuyg'u, hissiyot, ehtiros va istak azob-uqubatlarni chuqurlashtiradi. Hayot mazmunan tug'ilishi, sevish, o'lim, azobdan iborat. «Borliq girdobi» dan chiqib olish uchun g'aflatdan uyg'onish, dunyo mohiyatini anglash, hayotga chinqoqlikdan, ko'ngilxushliklarga, lazzatlarga, hokimiyatga, boylikka intilishlardan voz kechish lozim. Faqat shundagina «najot topish yo'lli» ga kirish mumkin. Inson beshta axloqiy talabga amal qilishi lozim, deb e'tirof qilinadi. Bu axloqiy talabga ko'ra, har bir kishi yomonlik qilishdan, yolg'on gapirishdan, o'g'rilik qilishdan, his-tuyg'ularga ortiqcha berilishdan, ichkilikdan o'zini tiyishi lozim.

Siddxartxa Gautama insonni hayotdagi azob-uqubatlardan yo'llarini topish haqidagi ta'limotida, uning yechimi insonning bog'liqligini asoslashga urinib, inson faqat o'z kuchiga tayangan holda «najotning olijanob quyidagi sakkizlik yo'lidan» ongli harakati va sobitqadamligi ila o'z maqsadiga erishishi mumkin, degan g'oyani ilgari suradi. Buning uchun:

- 1. E'tiqod to'g'ri shakllangan bo'lishi;**
- 2. Maqsad sari qat'iy haarkat qilishi;**
- 3. To'g'ri tafakkur va nutq bo'lishi;**
- 4. To'g'ri fe'l-atvor bo'lishi;**
- 5. To'g'ri turmush tarzi bo'lishi;**
- 6. Kuch-g'ayratning to'g'ri maqsadga qaratilgan bo'lishi;**
- 7. Fikr, maqsadning to'g'ri yo'naltirilgan bo'lishi;**
- 8. Diqqat-e'tiborni to'g'ri orzu-niyat qilishga qaratish kerakligi ta'kidlanadi.**

Inson o'zining hayot faoliyati davomida ushbu qoidalarga rioya qilsa, dunyoning mohiyatini teranroq anglay boradi, maqsad muddaosiga erishib, oxir-oqibat yuksak kamolotga va osoyishtalikka erishadi. Gautama ta'limotida, asosan, taqvodorlikning yo'llari va talablari to'g'risida fikr yuritiladi. Ushbu ta'limotda ilgari surilgan ijobiy axloqiy talablar, insonni o'zini idora qilishga da'vat etuvchi to'g'ri

fikr yuritish, fe'l-atvorni to'g'ri bo'lishi, turmush tarzini to'g'ri tashkil etish, kuchg'ayratni, niyatni to'g'ri maqsadga qaratish haqidagi g'oyalar insonlarni o'ziga jalb etgan va odamlar ushbu ta'limotni qabul qilib uning talablarini bajarganlar.

4. Insoniyat doimo yaxshilikni yoqlab, yomonlikka qarshi kurashadi, yaratuvchanlik va bunyodkorlik unga xos bo'lgan buyuk fazilatlardir. Sharq xalqlarining buyuk ijodkorligi, bunyodkorligi va qadriyatları turli davrlar ta'sirida G'arbg'a, xususan. Antik Yunon-Rim madaniyatiga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. A.Makidonskiyning ustozi, jahongir shogirdi Osiyoni mahf etgach, unga yuborilgan «Avesto» kitobini chuqur o'rgangan qadimgi yunon faylasufi va qomusiy olimi Arastu (Aristotel, mil.av. 384-322 y.) o'z g'oyalarini boyitdi va unga muhim o'zgartirishlar kiritdi. U jamiyatda bo'lib o'tayotgan barcha voqyeliklar tabiatga xos deb biladi. Bu bilan jamiyatni tubdan o'zgartirish g'oyalariga qarshi chiqadi va jamiyat rivoji tabiiy jarayonlar tarzida kechishi kerak, deb hisoblaydi.

Aflatun (427 – 347 mil.av.) esa g'oyalar umumiylar tushunchalar sifatida odam aqliga bog'liq emas, ular ilohiy xususiyatga ega tushunchalar, deb izohlagan edi. Uning asosiy g'oyasi – ezgulik yoki yagonalik edi. Bunday oliv g'oya ko'pincha xudoga tenglashtirilardi. Bu falasufning ustozi bo'lgan Suqrot (Soqrat, mil.av.470-399 y.) esa bahs orqali, ya'ni muayyan masalalarni o'rtaga qo'yish va ularga javob topish yo'li bilan haqiqatni aniqlash mumkin, deb bilgan. U ezgulik va bilim donishmandlikdir, yaxshilik mohiyatini to'g'ri anglagan insongina yaxshilik qiladi deb, tushuntiradi. Suqrot adolatga xilof bo'lgan davlat boshqaruvining hamma shakllarini tanqid qiladi, faqatgina adolatli demokratik davlat boshqaruvini yoqlab chiqadi.

«Avvalo onangga, yana onangga va yana onangga yaxshilik qil», «Sizlarning yaxshiliklaringiz ahloqi yoqimli bo'lganlaringizdir», «Ekmak niyatida qo'lingizda ko'chat turgan paytda behosdan qiyomat qoyim bo'lib qolishi aniq bo'lganda ham ulgursangiz uni ekib qo'yavering», degan da'vatlarda ezgulik va insonparvarlik g'oyalari mujassamlashtirilgan. Sharqda, ya'ni Turon zaminida esa jamiyat rivoji va bunyodkorlik g'oyalari xususida Abu Nasr Forobi, Ibn Sino, Alisher Navoiy qarashlari o'ziga xos o'rinn tutadi. «Al-muallim as-Soniy» («Ikkinchi muallim»), Sharq Aristoteli deb nom olgan Abu Nasr Forobi (873-990 y.y) o'zining «Fozil odamlar shahri», «Fuqarolik siyosati», «Baxt-saodatga erishuv haqida» kabi asarlarida oliyjanob jamiyat, adolatli tuzum haqidagi o'z fikr-mulohazalarini bayon qilib, o'z davri uchun izchillik ta'limoti yaratadi. U har tomonlama yetuk, barcha aholini baxt-saodatga, ilm-ma'rifatga olib boruvchi yuksak axloqqa ega ideal jamoa haqidagi g'oyalarni olg'a suradi.

Abu Nasr Forobiy «Insonning mohiyati haqiqiy baxt-saodatga erishuv ekan, inson bu maqsadni o'zining oliy g'oyasi va istagiga aylantirib, bu yo'lida barcha imkoniyatlardan foydalansa, u baxt-saodatga erishadi», deb alohida ta'kidlangan. O'sha davrning buyuk mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali Ibn Sinoning bu boradagi qarashlari ham o'ziga xosdir.

Ular har bir narsani kuzatish va tajriba asosida o'rganishga, keyin xulosa chiqarishga intilganlar, barcha bunyodkorlik insonning mehnatiga bog'liqligini ta'kidlaganlar. Buyuk o'zbek shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi Alisher Navoiy esa o'z asarlari bilan jamiyat taraqqiyotining zamonasiga xos fazilatlarini yoritishga harakat qilgan. U she'rlari va dostonlarida razolatgabeg'arorlikka, urushu janjallarga, ma'rifatsizlik, jaholatga qarshi kurash g'oyalarni ulug'laydi. Insonlarni mehnatga, yaratuvchanlikka,adolatga chaqiradi. Ma'rifatga asoslangan jamiyat yaratishni orzu qiladi. Uning bu orzulari «Farhod va Shirin», «Saddi Iskandariy» kabi dostonlarida o'z ifodasini topgan. Shoирning bevosita o'zi ham bunyodkorlik ishlariga bosh-qosh bo'lган.

Buyuk mutasavvuflar: Xoja Yusuf Xamadoniy, Ahmad Yassaviy, Abdulholiq G'ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Najmuddin Kubro; muhaddislar: Imom Buxoriy, Imom Termiziylarning ta'limotlarida aks etilgan komil inson g'oyalari,adolat haqidagi qarashlari, jamiyatning sog'lom ma'naviy-axloqiy ruhini saqlash va mustahkamlashga xizmat qildi. Bu g'oyalalar Vatan va xalq manfaatlari yo'lida fidoiylik va insonparvarlikni ulug'ladi.

Ezgu g'oyalalar Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin, Rumiy, Mirzo Abdulqodir Bedillar ijodida chuqur o'rinni egalladi va o'zbek davlatchiligining rivojlanishida ham muhim omil bo'lib xizmat qildi. Bilim va aql-idrok orqali ezgu ishlar qilish to'g'risida Yusuf Xos Xojibning quyidagi fikrlari e'tiborga molik: «Tabiat kimga zakovat, aql-idrok, bilim bersa, u ezgu ishlar qilishga qo'l uradi»,¹ - deb yozgan edi «Qutadg'u bilig» (XI) Amir Temurning «Temur tuzuklari», Nizomulmulkning «Siyosatnoma» kitoblarida davlat idorasi va ahli fuqaroga munosabatdaadolat, insof, diyonat, el-yurt tinchligi va obodligi bosh g'oya sifatida ilgari surildi.

Bu g'oyalalar Temuriylar davlati g'oyaviy prinsiplarning ustuvor yo'nalishi edi. Amir Temurning bunyodkorlik g'oyalari va amaliy faoliyati katta ahamiyatga ega bo'lib, uning asosiy maqsadi bunyodkorlik va yaratuvchanlik edi. Jumladan, u «Temur tuzuklari» da: «Agar fuqaroden birining uy imorati buzilib, tuzatishga qurbi yetmasa, kerakli uskunalarini yetkazib berib, unga yordam berilsin», deb ko'rsatma

¹ Ўадимги ёикматлар. – Т.: Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987, 94-бет.

beradi. Shu o'rinda, Yurtboshimizning Amir Temur o'z davlatini aql-zakovat va huquqiy asos bilan idora etgan desak adolatdan bo'ladi, degan fikrlari nihoyatda o'rinnlidir. Zero, Sohibqiron o'z buniyodkorlik maqsadiga erishish uchun sobitqadamlik bilan harakat qilgan. Jumladan, bu haqda «Temur tuzuklari»da yozganidek, «Biror ishni bajarishni o'ylasam butun zehnim, vujudim bilan bog'lanib, bitirmagunimcha undan qo'limni tortmadim»,² - degan so'zlari bugun ham ibratlidir.

Uning Movarounnahr, Xuroson va boshqa joylarda bunyod etilgan inshootlari, Temuriylar sulolasini davridagi madaniyat, fan va adabiyot sohasidagi yutuqlar bunga misol bo'la oladi. Barcha davrlarda va turli xalqlar tarixida milliy g'oya va mafkura o'zida gumanizm talablarini, xalqning iroda va intilishlarini aks ettirgan taqdirda jamiyatni birlashtirib, uning salohiyati va imkoniyatlarini to'la yuzaga chiqarishda beqiyos omil bo'ladi.

Hind xalqning buyuk farzandi Mahatma Gandhi (1869-1948) o'z ma'naviyati, g'oyalari va ilg'or qarashlari bilan XX asrning buyuk shaxslaridan biriga aylandi. U mustamlakachiliklarga qarshi kurashning timsoli edi. U hindlar bilan musulmonlarning o'zaro do'stligini mustahkamlashga intildi. Gandhi din bilan siyosatni bir-biriga bog'lashga harakat qildi. Fidoiylik va vatanparvarlik namunalarini ko'rsatdi. Men uyim to'rt tomondan devor bilan o'ralib, derazalarim zich bekitib qo'yilishini istayman. Barcha mamlakatlar madaniyati uyimga erkin kirib kelishini xoxlaymanu, lekin uning oyog'imdan qoqib yiqitishini ham istamayman degan edi. Darhaqiqat, Maxatma Gandhi hind xalqining fidoiy va vatanparvari bo'lib, u boshqa xalqlar manaviyati ta'sirida o'z xalqi madaniyati va taraqqiyotining yanada rivojlanishini istar edi.

Masalan, XX asrda dunyo hamjamiyati tomonidan tan olingan yaponcha taraqqiyot modelini olaylik. Yapon milliy mafkurasi «milliy davlatchilik tizimi» (kokutay), «fuqarolik burchi», «yapon ruhi», «tadbirkorlik», «umuminsoniylik», «fidoiylik», «vatanparvarlik», «paternalizm», «jamoaga sadoqat», «modernizasiya» kabi g'oya va tushunchalarga asolanib, mamlakat erishgan yuksak natijalariga poydevor bo'ldi.

Shunday buniyodkor g'oyalardan biri Janubiy Koreya mamlakati rivojiga katta hissa qo'shgan fidoiy inson Yong Ki Kimning yuksak g'oyalarga asoslangan vatanparvarlik faoliyati va buniyodkorlik ishlari diqqatga sazovor. O'tgan asrning 30-yillarida «12 oila – qishloqda» degan harakatni boshlab, giyoh ham ko'karmagan tashlandiq tepalikni sotib olib obod qilishga kirishdi. Keyinchalik fermerlar tayyorlaydigan «Kanaan» (imkoniyatlar maktabi) ni ochadi. U hamisha faqat

² Темур тузуклари. – Т.: Ф.Люлом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996, 70-бет.

tashlandiq, giyoh o'sishi qiyin bo'lgan yerlarni olib obod qilib, odamlarni o'z tashabbusi, g'oyasi bilan orqasidan ergashtirib mamlakat rivoji va obodonligiga o'z hissasini qo'shdi. Bugungi kunda «Kanaan» ta'lim dargohining bosh maqsadi – tinglovchilarda insoniy e'tiqod tuyg'ularini shakllantirish, ularga insoniy fazilatlar – komillik, o'zaro tenglik, birodarlik, vatanparvarlik hislarini singdirishdir. Vatan va millat ravnaqi yo'lida fidokorona mehnat qilish, tug'ilib o'sgan Vatanni jordan ortiq sevmoqlik shart ekanligi g'oyasi har bir tinglovchiga singdirildi. Bitta fidoiy vatanparvar insonning yuksak g'oyalarga g'oyalar asoslangan ishlari bugungi kunda keng tarqalib Janubiy Quriyaning obod bo'lishiga katta hissa bo'lib qo'shilmoqda.

Ozodlik, mustaqillik, tinchlik,adolat, tenglik, hamkorlik, do'stlik, birodarlik, hurfikrlilik, ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, invonparvarlik, tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, xayriroxlik, barqarorlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, halollik, poklik va h.k.bunyodkorlik g'oyalalarining ko'rinishlari bo'lsa, kelajakka ishon, adolat, haqiqatni tan olish, jur'atli bo'lish, sobitqadamlik, mehr-muruvvat, sahovatlilik, baynalminallik, millatlararo do'stlik va birodarlik, fidoiylik, yurtga sadoqatlilik, taraqqiyatparvarlik, iymon-e'tiqodlilik, vijdon erkinligi, safarbar etish, uyushtirish, faravonlik, tashabbuskorlik, ezgulik, yaratuvchilik, fikr erkinligi – bunyodkor g'oyalarga xos xususiyatlardir.

5. Vayronkor g'oyalalar – jamiyat, xalq va davlatlarning tanazzuliga sabab bo'ladi, g'ayrinsoniy maqsadlarga xizmat qiladi.

Insoniyat tarixida ezgulik va bunyodkorlik g'oyalari bilan yovuzlik va buzg'unchilik g'oyalari o'rtasida hamisha kurash bo'lganligi tarixdan ma'lum. Yovuzlik g'oyalari tarixida hamisha salbiy va yovuz kuchlar faoliyati hamda hukmronligini ifodalaydi. Salbiy yurishlarga turtki bo'lgan g'oyalarga, irqchilik, fashizm, terrorizm, mustamlakachilikni targ'ib qiluvchi g'oyalar misol bo'ladi.

Insoniyatning, jumladan, O'zbekistonning bir necha yuz yillik tarixida ham turli bosqinchiliklar oqibatida zulm, zo'ravonlik, kulfat urug'larini sochish va qon to'kilishiga sabab bo'lgan buzg'unchilik g'oyalalar va mafkuralarning halokatli ta'siri bilan bog'liq voqyealar ko'p bo'lgan. Bu g'oyalalar o'zlarida mustabidlik intilishlarini goh yashirin, goh oshkora ifodalagan holda amalga oshgan.

Jumladan, bolshevizm bilan bir qatorda, XX asrning boshida mutabid g'oya va mafkuraning boshqa shakli – fashizm paydo bo'ldi.

Fashizm (ital. Fasismo – bog'lam, birlashma) – arb mamlakatlarida XX asr boshlaridagi og'ir iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy buxronlar davrida vujudga kelgan o'ta tajovuzkor va vayronkor g'oyalalar asosida shakllangan insoniyatga qarshi nazariya va amaliyot. U jamiyatda o'ta reaksiyon va tajovuzkor doiralarning

dunyoqarashi va manfaatini ifoda etgan holda, ochiqdan-ochiq terroristik diktaturaga, zo'ravonlik g'oyasiga tayanadi. Fashizmning muhim xususiyati – ochiqdan-ochiq shovinizm va irqchilik bo'lib, uning mohiyati jamiyatning barcha taraqqiyatining qatlamlari, ilor fikrli a'zolariga qarshi kuch ishlatalishning eng og'ir va zararli shakllarini qo'llash jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Fashizm o'z kirdikorlarini yashirish va xaspo'shslash uchun siyosiy tilyog'lomalik, yolg'on va bo'htonlardan ustalik bilan foydalanadi.

Fashizmning tashqi siyosati bosqinchilikdan va xalqaro terrorchilikdan iborat bo'lib, bunday siyosiy rejimlar XX asrning 30-yillarida Italiyada, Germaniyada, Portugaliyada, Ispaniyada va Sharqiy Yevropaning boshqa bir qancha mamlakatlarida o'rnatilgan edi. Fashistlar Germaniyasi militaristik Yaponiya bilan ittifoq tuzib, 1939-1945 yillardagi Ikkinci jahon urushini boshlagan. Bu urush insoniyatga mislsiz kulfat va falokatlar keltirdi, 50 milliondan ortiq odam halok bo'ldi, yuzlab shahar va qishloqlar vayron qilindi.

O'tgan asrning 70-yillariga kelib, Portugaliya, Gresiya, Ispaniyada ham fashistik tartiblar barbod bo'ldi. Ammo bugungi kunda ham ba'zi mamlakatlarda (Avstriya, Germaniya va b.) fashistik unsurlarning muayyan darajada faollashuvi kuzatilmoxda. Yangi fashizm g'oyasi insoniyat uchun zararli ekanligini har bir inson anglamog'i lozim.

Bolshevism mafkurasi bo'lgan kommunistik ta'limot xalqlarning milliy-etnik o'ziga xosliklarini yo'qotish, «proletar baynalmilalligi» shiori bilan maydonaga chiqqan bo'lsa, fashizm bir hukmon millatning «irqi-etnik sofligi» ni mutlaqlashtirishni targ'ib-tashviq etdi. U irqchilikning homisi hisoblanadi.

«Rasmsiz» so'zi «rasa» (irq) atamasidan kelib iqqan. Bu atama XVII asrdan boshlab Yevropada «insoniyat nasli» ni turli irqiy guruhlar, jumladan, «oq» va «sariq» irqqa ajratish uchun qo'llana boshladi.

Irqchilik – odamlar o'rtasidagi ijtimoiy tengsizlik, bosqinchilik, zo'ravonlik va urushlarni kishilarning turli irqlarga mansubligi bilan oqlashga xizmat qiluvchi g'ayri-milliy ta'limot.

Irqchilik ta'limoti «oq tanli» larning afzalligi, ularning azaldan «oliy irq» etib tanlangani, boshqa irqlarning esa «oq» larga qaraganda nomukammal yaratilganligi va hamisha taraqqiyotning quyi pog'onalarida turishi «asoslab» beradi. Uning asosiy g'oyasi o'zining «ilohiy» tabiatiga ko'ra «oq» irqlar ustidan hukmon qilishga da'vat etishga qaratilgan edi. Irqchilik milliy mansubligi va terisining rangiga ko'ra farqlanib turuvchi kishilarga tazyiq o'tkazish, ularni haqoratlash, urish va o'ldirish kabi harakat-hodisalarda yaqqol namoyon bo'ladi. U buyuk davlatchilik, ashadiy

shovinizm, «tanlangan» xalqlarning milliy afzalligi g'oyalari bilan chambarchas bog'lanib ketadi.

Irqchilik ta'limoti boshqa xalqlarga nisbatan bosqinchilik, talonchilik amaliyoti bilan yaqindan bog'liqdir. Irqchilik ta'limoti bilan qurollagan fashistlar Germaniyasi «oriylar irqi» hukmronligini o'rnatish maqsadida jahon urushini boshlagani bunga yaqqol misoldir. Hozir ham reaksiyon mafkuraga asoslangan kayfiyatdagi ayrim guruhlar ,ularning nazariyotchilari irqchilik g'oyalarini targ'ib etib, «qoloq» xalqlarning go'yo mustaqil rivojlanishiga ruhiy tayyor emasliklarini da'vo qilmoqdalar. Dunyoning turli mintaqalaridagi bunday qarashlar va harakatlarni xalqlar ozodligini bo'g'ishga, ular ustidan hukmronlik o'rnatishga intilishdan so'ng ba'zi imperiyacha fikrlovchi ayrim siyosatdonlar va ularning nazariyotchilari qarashlarida ham irqchilik kayfiyatları paydo bo'lganini kuzatish mumkin. Bunday qarashlarning asossiz ekanini hayot ko'rsatmoqda. Ma'lumki, irqlar odamlarning ikkilamchi tashqi nasliy xususiyatlari (badanining rangi yuz-bosh tuzulishi kabi belgilari) bir xil bo'lgan, tarixiy davrda shakllangan guruhlardir. Dunyoda yevropalik, mo'g'ul va negrlik belgilariga qarab ajratiladigan uch asosiy irq bor. Insonning jismoniy tuzilish asoslari (suyak, mushak, miya va tananing boshqa a'zolari) barcha irqqa mansub kishilarda bir xildir. Butun insoniyat yagona biologik turga – «Homo sapiens» mansubdir. Tarixiy taraqqiyot davomida irqlarning aralashuvi –irqiy belgilarning sodir bo'lib kelgan va u hozir ham davom etmoqda. Barcha irqlar madaniy taraqqiyotga birdek qobiliyatlidir. Irqchilik insoniyatga qarshi g'oyadir. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida barcha irqlar va millatlarning teng huquqliligi belgilab qo'yilgan. Bu qoida jahon hamjamiyatining xalqaro huquq me'yorlariga javob beradi.

Bugungi kunda insoniyatga katta tahdid solayotgan yana bir eng yovuz g'oyalardan biri – terrorizmdir.

TERRORIZM (lot. Terror – qo'rquv, dahshat) – ma'lum yovuz maqsad yo'lida kuch ishlatib, odamlarni jismoniy yo'q qilishdan iborat bo'lgan g'oyaga asoslangan zo'ravonlik usuli. Qo'rqtish va dahshatga solish orqali o'z hukmini o'tkazishga urinish terrorchilikka xosdir. U iqtisodiy, siyosiy, diniy, g'oyaviy, irqiy, milliy, guruhiy, individual shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Jamiyatga doimiy qo'rquv, fitna, g'alamislik muhitini vujudga keltirish zo'ravonlik yo'li bilan jamiyat barqarorligini buzish, gunohsiz kishilar, jumladan, bolalarning halok bo'lishiga olib keladigan siyosiy maqsaddagi o'ldirish va portlatishlar bu mudhish g'oyaning asl mohiyatini tashkil etadi.

Terrorizm harakatlari insoniyat tarixida yangilik emas. U insoniyat hayotiga tahlika va tahdid solib, turli g'arazli maqsadlarning, g'oyalar va hohish irodalarning

timсоли сифатида yashaydi. Terrorizm ma'lum bir guruhning shaxsiy manfaatlari, o'z orzu-umidlari va g'ayriinsoniy xatti-harakatlarining majmuasidir. Ayni paytda, u ana shu maqsadlarning amalga oshishi uchun har qanday xunrezliklardan, qotilliklar va zulmdan qaytmaydi.

Terrorizm xatti-harakatlarining mazmuni va mohiyati bevosita zo'ravonlik, inson hayotiga tahdid va uning huquqlarini poymol etish bilan bog'liq bo'lgan. U butun mamlakatni xonavayron qilishga olib kelgan xalq, millat va mamlakat tag'dirini butunlay boshqa o'zanga burib yuborib, o'z maqsadi va g'oyalarining ro'yobga chiqishi uchun hyech narsadan tap tortmasdan hokimiyatga erishish da'vositdir. Ayni paytda, u har qanday fikrlash ,aql-idrok doirasida ish yuritishdan xoli bo'lgan shavqatsizlik, ashaddiy xunxo'rlik, jazava va tazyiq bilan yovuz niyatini amalga oshiradigan bir to'da olomon faoliyatidir.

Terrorizm turli mamlakatlarda xilma-xil shakllarda va har xil maqsadlar asosida dunyoga keladi. Ma'lum bir mamlkat xalqlarining dunyoqarashi, ma'naviyruhiy qiyofasi, aniqrog'i, ehtiyojlari, tur mush tarzi bevosita ana shunday jarayonlarning shaklini, qiyofasini, mohiyatini va rivojlanish jarayonlarini, boshqacha qilib aytganda, evolyusiyasini belgilaydi.

O'zlarining yovuz niyatlariga erishish uchun hokimiyatni qo'lga kiritishni ko'zlovchi kuchlarning zo'ravonligi va qo'poruvchili siyosiy terrorga misol bo'ladi. Siyosiy terrorizm nafaqat jinoyatchi guruhrar, hatto ba'zi reaksiyon, agressiv ruhdagi rasmiy kuchlar tomonidan uyuştirilishi va qo'llanishi ham mumkin.

Chorizm imperiyasining kolonial va shovinistik siyosati, sovet imperiyasining g'oyaviy qatog'onlari xalqimizga qarshi o'ziga xos terror edi. Bugungi kunda ham mustaqil rivojlanish yo'lidan borayotgan mamlakatimizga nisbatan g'araz niyat bilan qarovchi «yovuz» kuchlar terrorchilik yo'li bilan taraqqiyot yo'limizdan chalg'itishga,bizni qaramlikka, asoratga solishga urinmoqda. Ular vatanfurush xoinlardan ham, terrorchilikni «kasb» qilib olgan, «buyurtma» bo'yicha qo'poruvchilik va bosqinchilik bilan shug'ullanuvchi yollanma xalqaro terrorchi, jinoyatchi guruhlardan ham foydalanmoqdalar. 1999 yilgi fevral voqyealari, Amerika Qo'shma Shtatlarida 2001 yil 11 sentyabrda sodir bo'lgan voqyealar, dunyoning turli mamlakatlarda amalga oshirilayotgan xunrezliklar terrorchilar o'z maqsadlari yo'lida hyech narsadan top tortmasliklarini ko'rsatib turibdi.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov «Nezavisimaya gazeta» (Moskva) ning muxbiri Viktoriya Panfilovaga (2005 yil 14 yanvar) bergan intervusida: «Xalqaro terrorizm» tushunchasi 2001 yilning 11 sentyabridan ayniqsa urch bo'ldi. Biroq bundan ancha avval ham Italiyada «Qizil brigadalar» va Germaniyada «Baoder-mayn

xof» bir paytlar tinchlikni talab qiluvchi tashkilot sifatida matbuotga chiqqan, bugunga kelib esa eng ashaddiy terrorchilar, qotillar va zo'ravonlarni yetkazib beradigan tashkilotga aylangan. «Xizbut-tahrir» ni misol qilib keltirish mumkin. Shu sababli ham bizning ishonchimiz komilki, avvalambor, terrorchilar tomonidan yoshlarning ongiga singdirib, ularni elaktirishtirib ishlarga tortadigan yovuz mafkuraga qarshi keskin kurash olib borish kerak. «Terrorchilikka qarshi kurashda bizning prinsipimiz nuqtai nazarimiz o'zgargani yo'q» - deb ta'kidlaydi:

Darhaqiqat, terrorizm qanday bayroq ko'tarib chiqmasin, qanday shiorlar bilan niqoblanmasin, uning reaksiyon, jinoyatkorona mohiyatini farqlab olish, yovuz niyatni oolib tashlash ongli, hurfikrli insonning, har bir vatanparvar fuqaroning burchidir.

Yovuz g'oyalardan yana biri buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilikdir.

Buyuk davlatchilik shovinizmi - bir davlatning boshqa davlat yoki davlatlar ustidan siyosiy ,mafkuraviy, iqtisodiy va harbiy hukmronligini o'rnatishtiga qaratilgan nazariya va amaliyot.

Xususan, XXI asr oxiridan boshlab Rossiya imperiyasining hukmron doiralari boshqa xalqlarga, jumladan, O'rta Osiyo xalqlariga nisbatan ana shunday siyosat olib borganlar. Ilkinchi jahon urushidan keyingi davrlarda ham bir qancha mamlakatlar buyuk davlatchilik siyosatini xilma-xil ko'rinishda olib bordilar.

Prezident I.A.Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik xavfsizligimizga tahdid solayotgan muammolardan biri ekanligini alohida ta'kidlagan: «O'tgan mustaqil rivojlanish yillari davlatimizning suvereniteti va barqarorligiga tahdid saqlanib qolmoqda, deb aytish uchun asos bo'la oladi. Bu tahdid buyuk davlatchilik ruhidagi shiorlarga, bildirilayotgan fikrlarda, sharhlarda va muayyan hatti-harakatlarda namoyon bo'lmoqda».³

Buyuk davlatchilik shovinizmi g'ayriinsoniy xususiyatga ega bo'lib, boshqa xalqlarni qaram qilish, iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotda ularni kamsitishning o'ziga xos shaklidir.

Shovinizmning tarixan halokatli ekanligiga sabab shuki, haddan tashqari kuchayib ketgan va ayniqsa, o'z milliy mumtozligiga ishoniga asoslangan buyuk davlatchilik zo'ravonlik asosiga qurilganligidadir. Bu esa, o'z navbatida, buyuk

³ Каримов И.А. Хавфсизликка ва баръярор тараъълиёт йњлида. 6-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1998, 64-бет.

davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilikni ifoda etuvchi davlatlarning o'zida ko'plab qurbanlar va yo'qotishlarga olib keladi.

Shu bois aytish mumkinki, shovinism, pirovardida, davlatning o'ziga zarba beradi, uning poydevorini kuchiszlantiradi, ichki ziddiyatlarni kuchaytiradi. U jamiyatni parchalab yuborishga va uning uchun og'ir bo'lgan oqibatlarni keltirib chiqarishga qodir. Garchi tarixiy davrlari va shart-sharoitlari turlicha bo'lsa-da, Rim, Usmonlilar, Germaniya hamda Rossiya va Sovet imperiyalarining tarixida bunga ko'plab misolar topish mumkin.

Shovinistik kuchlar bugungi kunda, birinchidan mamlakat aholisiga axborot orqali va mafkuraviy yo'l bilan tazyiq o'tkazish, ikkinchidan, mintaqadavlatlari ichida ziddiyatlarni yuzaga keltirish, uchinchidan, jahon afkor ommasida O'zbekiston haqida noto'g'ri tasavvurlarni shakllantirishga harakat qilmoqda. Bu yo'lida ular xilma-xil usul va vositalardan foydalanmoqdalar.

Buyuk davlatchilik shovinizmi ham jaholatning bir ko'rinishi. Unga qarshi faqat ma'rifat bilan kurashish mumkin. Bunda, ayniqsa, xalqaro hamjamiyat, jumladan, uning teng huquqli a'zosi bo'lgan har bir davlat bilan o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatish yaxshi omil bo'lib xizmat qiladi. Ana shundagina mintaqamiz hyech qachon sivilizasiyalar to'qnashmaydigan, balki ular bir-biriga ijobjiy ta'sir etib, bir birini boyitishgan makonga aylanadi.

Diniy aqidaparastlik – siyosiy maqsadlar yo'lida mavjud ijtimoiy muammolarni ilk, ya'ni mazkur din paydo bo'lgan paytdagi arkonlar asosida hal etmoq nichtidagi harakat va qarashlardan iborat.

Aqidaparstlar diniy e'tiqod shakllanishining boshlang'ich davrida belgilangan, o'sha zamondagi siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarga mos bo'lgan barcha yo'l-yo'riqlarning qat'iy hamda og'ishmay bajarilishini talab qiladilar va shu tariqa oqimlarni ifodalashda qo'llanadigan islohot shaklini shart qilib qo'yadilar.

Islom arkonlarini niqob qilib olgan aqidaparastlarning asosiy g'oyasi – «sof islom» qat'iyatlarga (prinsiplariga) qaytish, maqsadi esa islomiy davlat joriy etishdan iborat. Aqidaparast guruhlar haqiqatni tushuntirish, ishontirish kabi usullar orqali targ'ib etishni tan olmaydi. Ular o'z g'oyalari bid'atli, g'ayriinsoniy bo'lishiga qaramasdan, o'ta johil va boshqalarga nisbatan murosasiz munosabatda bo'ladilar. O'zini shak-shubhasiz haq deb bilish, haqiqatni faqat men bilaman, degan qarashga asoslangan manmanlik esa, zo'ravonlikni yuzaga keltiradi. Ya'ni, aqidaparastlik ekstremizmning paydo bo'lishiga zamin yaratadi.

O'zbekistondagi diniy ekstremizm va aqidaparastlikning islom dini niqobidagi ekstremizmi va aqidaparastligi shakli mavjud va aynan shu omil milliy xavfsizligimizga tahdiddir.

Aqidaparastlarning g'oyalari o'ta zararli bo'lib, ularning fikricha, biz millatimizni jahonga tanitgan allomalarimiz Xorazmiy, Beruniy, Forobiy, Ibn Sino, Navoiy, Ulug'bek va tariximizdagi barcha ulug' zotlardan mahrum bo'lishimiz kerak. Chunki aqidaparastlar nazarida qayerda tasavvuf bo'lsa, komil inson g'oyasi bo'lsa, bularning barchasi islomga va bizga yot va begona emish. Ular komil insonni kufr, deb bilishadi. Ularning fikricha, inson komil bo'lishi mumkin emas. Imom Termiziyy, Najmuddin Kubro, Abdulxoliq G'ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy singari buyuk zotlar, jumladan, ota-bobolarimiz xilxonalarini va muqaddas joylarni tavof va ziyorat qilmaslik yekrak emish. Bularning barchasi bizning turmush tarzimiz, milliy xususiyatlarimiz, an'analarimiznigina emas, xalqimizning o'ziga xos psixologiyasini barbod qilishga qaratilgandir. Tasavvufning komil insong'oyasida insonning erki va taraqqiyoti ifodalanganligini diniy aqidaparastlar g'azabini keltiradi. Aqidaparastlik – jaholatdan boshqa narsa emas. U insonni bir mute, qul, taqdirning o'yinchog'i deb qaraydi, inson qalbi, ma'naviy ehtiyojlari bilan mutlaqo hisoblashmaydi.

Fundamentalistlar esa tasavvuf ta'sirida shakllangan adabiyot, falsafa, san'atdan ham voz kechish, umuman aql va his bilan yaratilgan barcha narsalarni yo'q qilishni talab qiladilar.

Aqidaparastlik va fundamentalizmning namoyon bo'lishini dunyoning ba'zi mamlakatlarda bugungi kunda mavjud hukmron dindan boshqa dinni targ'ib qilganlar jazolanganligi, boshqa din va uning madaniy yodgorliklariga murosasiz munosabatda bo'lib, uni yo'q qilishga urinishlarida ko'rishimiz mumkin. Masalan, Afg'oniston hududidagi buddizm diniga mansub 15 asr ilgari bunyod etilgan Bamiyon shahridagi madaniy yodgorliklar ham yo'q qilinishiga fatvo berilib, dunyodagi eng yirik va noyob Buddha yodgorliklari tutilib, buzib tashlandi. Bu johilona xatti-harakatlar islom dini va tasavvuf ta'limotining o'zga dinlarga nisbatan bag'rikenglikka asoslangan munosabatlariga mutlaqo zid bo'lganligi uchun ham butun dunyo musulmonlari va barcha taraqqiyarvar kuchlar tomonidan qoralanadi.

Islom dinining tasavvuf ta'limoti ahli esa hayotga va inson masalalariga keng qaraganlar. Bu chin ma'nosi bilan insonparvarlik ta'limotidir. Chunki sufilar, garchi chin musulmon sifatida shuhrat qozonib, islom dini uchun kurashgan bo'lsalar-da, ammo hyech qachon o'zga dinlarni kamshitmaganlar. Shu sababli ham tasavvuf diniy bag'rikengilk ta'limoti ,inson kamolotiga yo'l qidirgan hamda jaholatga qarshi kurashib kelgan ma'rifiy ta'limotdir.

Aqidaparastlikka qarshi turadigan kuch – bu ilm-ma'rifatdir. Asrimiz boshida ham jadidlar yangi maktablar tashkil etib, yoshlarga dunyoviy bilim berib, aqidaparastlikka qarshi kurashgan edilar. Aqidaparastlar «dinni tozalash», «sof dinga qaytish» niqobi ostida tashviqot olib borib, odamlarni tahlikaga solish, qonli jinoyatlar sodir etish, jamiyatni xavf ostiga qo'yishga urinmoqdalar. Ularning bu xattti-harakatlari yosh mustaqil davlatimizga ochiqdan-ochiq tajovuzdan boshqa narsa emas, u milliy mustaqilligimizga ham katta tahdiddir.

Diniy ekstremizm – ma'lum siyosiy maqsadlar yo'lida va din niqobi ostida mutaassiblar yoki ularning irodasiga ko'ra ish ko'rvuchi guruhlar tomonidan olib boriladigan o'ta ashaddiy harakatlar va qarashlar majmuini anglatadi.

Boshqacharoq aytganda, diniy ekstremizm – muayyan diniy yo'naliш va tashkilotlardagi ashaddiy mutaassib unsurlar siyosiy faoliyatining mafkurasi. Bu fikrning isboti sifatida «Musulmon birodarlar» va undan ajralib chiqqan ko'plab diniy ekstremistik ruhdagi guruh va tashkilotlar tayanadigan asosiy g'oyalarni eslab o'tishimiz mumkin.

«Musulmon birodarlar» hyech qanday ma'muriy-jug'rofiy hududni tan olmaydilar va pirovard maqsadda yer yuzidagi barcha mamlakatlarda yagona musulmonlar birligi va ularning diniy va dunyoviy hokimiyatini o'zida mujassamlashtirgan «xalifa» rahbarligidagi yagona musulmon davlati qurishni ko'zlaydilar. Bu shartni bajarmoq, niyatga yetmoq uchun har qanday xunrezlikka va birodarkushlikka fatvo beriladi.

Diniy ektremizm namoyon bo'lishiga ko'ra xududiy, mintaqaviy, xalqaro shakllarga bo'linadi. Bunday qarashlar juda qadimiylardan ildizlarga ega bo'lib, hyech qachon chegara bilmagan, millat, xududni tan olmagan, diniy ekstremizm barcha dinlar doirasida rivojlangan. Diniy ekstremistlar qayerda va qaysi din bayrog'i ostida faoliyat ko'rsatmasin, asosiy maqsadi diniy davlatni barpo qilish bo'lib, bu maqsadga o'zaro nizolar, ixtiloflar, qurollar to'qnashuvlar orqali, ya'ni qon to'kish va zo'rlik bilan erishishni ko'zlaydilar.

Bu esa mustaqillikka ham, taraqqiyotga ham katta g'ov bo'ladi. Ekstremistik guruhlarning yagona maqsadi hokimiyatni qo'lga olish bo'lib, bu yo'lida ular eng jirkanch usullarni qo'llashdan ham tap tortmaydilar. Bugungi kunga kelib ekstremizm nafaqat islam dunyosida, balki boshqa dinlar tarqalgan hududlarda ham, to'la-to'kis namoyon bo'lib kelmoqda.

Dunyoda inson huquqlari va demokratik tamoyillar ustuvor bo'lib borayotgan, qonun hamda xalqaro huquq qoidalari mamlakatlar, xalqlar, davlatlar orasidagi munosabatlarning asosiy tamoyiliga aylanayotgan hozirgi davrda diniy

ekstremizmgao'rin qolmayapti. Ammo, bu unga qarshi kurashmaslik, xushyorlikni oshirmaslikni bildirmaydi. Mazkur sohada ham Prezidentimiz uqtirganlari kabi gohlik, ezgu g'oyalar yo'lida kurash olib borish hayot va faoliyatning asosiy mezoni bo'lib qolmoqda.

Diniy ekstremizmni keltirib chiqaruvchi sabablar:

- dindan foydalanib, dinga aloqasi bo'limgan siyosiy hamda boshqa tajovuzlar va maqsadlarni amalga oshirish uchun intilish;
- dinni niqob qilib ,turli siyosiy majorolar, ziddiyatlarni keltirib chiqarshga urinish;
- inson, millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini emas, balki yashashga bo'lgan huquqini e'tirof etish;
- dinni dunyoqarash, tafakkurning yagona vositasi deb hisoblash.

O'z-o'zidan ravshanki, bu hodisalar O'zbekistonning mustaqilligini mustahkamlash, uning xavfsizligini ta'minlash zarurligi nuqtai nazaridan qaraganda butunlay zararli g'oyalardir.

Hozirgi kunda bizning turmush tarzimizga, ruhiyatimizga nisbatan qilinayotgan ma'naviy-ma'rifiy hujumlarning turli usullari tobora noziklashib borayapti. Zararli g'oyalarni turli kinofilmlar, televideniye ko'rsatuvlari va radio eshittirishlari shaklida, gazeta-jurnallar, internet tarmog'i va boshqa yo'naliishlarda uzluksiz ravishda tiqishtirib, bizning milliy qadriyatlarimizni barbod etishga, mafkuraviy immunitetimizni susaytirishga, yoshlarimizni soxta g'oyalarning ta'siriga olishga muntazam harakat qilinmoqda. Yot, zararli g'oyalarning mamlakatimizga kirib kelishi xalqning milliy g'oyasini (maqsad va intilishlarini), taraqqiyot yo'lini o'ziga xos va mos bo'limgan yo'naliishga burib yuborish, mamlakatlarning ijtimoiy, ma'naviy, siyosiy hayotini o'zgartirib yuborishi mumkin. Begona g'oyalarning mamlakatga kirib kelishi va fuqarolar o'rtasida tarqalishi katta xavf, salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkinligini e'tiborga olib, Abu Nasr Forobiy o'z vaqtida begona g'oyalarning zarari to'g'risida: «O'zga, begona g'oyalar kirib kelib, xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, an'analarini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin»,⁴ deb yozgan edi.

Sobiq ittifoq davrida yurtimizga begona g'oyalar kirib keldi. Begona ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, siyosiy hayot qaror topdi. Turmush tarzimizdan begona urf-odat, an'analar joy oldi. O'zimizga xos va mos bo'limgan kommunizm g'oyasi bilan

⁴ Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шақри. – Т.: F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашириёти, 1993.

yashay boshladi. Xalqimizning azaliy turmush tarzi, urf-odatlari psixologiyasi, qadriyatlar, insoniy munosabatlari, tarbiyasiga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Bunday g'oyalar inson tabiatiga zid bo'lib, uni salbiy tomonga o'zgartiradi, unda nosog'lom turmush tarzini shakllantiradi, fikrlar xilma-xilligini cheklaydi, qaramlik, tobelik, mutelik muhitini yaratadi. Milliy tafakkur tarzini o'z negizlaridan begonalashtiradi, begona urf-odat, an'analarni targ'ib qiladi, ularning kirib kelishiga muhit yaratadi, mamlakatni, xalqni o'z milliy qadriyatlaridan, oxir-oqibat o'z taraqiyot yo'lidan begonalashtiradi, jamiyatda xalqlar va millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglikka rahna solib, ichki ixtiloflar, parokandalikka olib keladi.

Oilada yoshlarga sog'lom tarbiya berish, fuqarolarning imon e'tiqodini mustahkamlash, milliy g'urur va iftixor bilan yashashga erishish, har tomonlama komil shaxslar qilib tarbiyalash, mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, fuqarolar ongida milliy istiqlol g'oyalarini shakllantirish orqali uning oldini olishi mumkin.

Milliy istiqlol g'oyasiga zid salbiy holatlar:

Befarqlik, maqtanchoqlik, xushomadgo'ylik, xasadgo'ylik, manmanlik, haqiqatni mensimaslik, tanish-bilishchilik, mahalliychilik, mansabparastlik. Ularni bartaraf etish uchun jamiyatda erkin fikr va fikrlashlar, g'oyalar xilma-xilligi, tanqid va o'z-o'zini tanqid muhitini yaratish, demokratiya va oshkoraliq muhitini kuchaytirish, sog'lom va erkin raqobat muhitini yuzaga keltirib, jamiyatda ilm-ma'rifatning mavqyeini yanada oshirish zarur.

2- Mavzu: Jamiyat taraqqiyotining g'oya, mafkuralar bilan o'zaro bog'liqligi.

Syeminar mashg'ulotining ukitish tyexnologiyasi

O'quv vaqtি 2 soat	Talabalar soni 25-30
O'quv mashg'ulotining shakli.	Bilimlarni shukurlashtirish va kyengaytirish buyisha syeminar mashguloti
Syeminar ryejasi	1.Foya tushunchasi. Foyaning turlari. mafkura tushunchasining mohiyati-mazmuni 2.Bunyodkor g'oyalarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni 3.Vayronkor g'oya va mafkuralarning jamiyat hayotiga ta'siri. 4.Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurash tamoyilining mohiyati.

O'quv mashg'uloti maqsadi: Talabalarga aqliy xujum usulini kullash orkali jamiyat taraqqiyotining g'oya, mafkuralar bilan o'zaro bog'liqligi haqida tushuncha berish.

Pyedagogik vazifalar: Mavzuning tub mohiyatidan kyelib shiqqan holda, syeminarsavollarini muayyan qismlarga bo'lism, har bir qismni o'zaro mantiqiy bog'liqlikni ta'minlash, oshib byerish, tushuntirish, shakllantirish. Darslik bilan ishslash kunikmalarini xosil kilish. Matyerialni taxlil kilish va tizimlashtirish kunikmalarini shakllantirish	O'quv faoliyatining natijalari: g'oya tushunchasi. Foyaning turlari. mafkura tushunchasining mohiyati-mazmuni. Bunyodkor g'oyalarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni. Vayronkor g'oya va mafkuralarning jamiyat hayotiga ta'siri. Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurash tamoyilining mohiyati oshib byeriladi.
Ta'lim usullari va tyexnikasi	Muloqot, aqliy hujum, Muammoli vaziyat
O'quv faoliyatining tashkil qilish shakllari.	Jamoa, guruhlarda ishslash.
Ta'lim vositalari.	Doska, bur, darslik, ko'rgazmali qurollar.
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat savol- javob, ryeyting tizimi asosida baxolash

2- MAVZU: Jamiyat taraqqiyotining g'oya, mafkuralar bilan o'zaro bog'liqligi

Syeminar mashg'ulotining tyexnologik xaritasi.

Ishlash bosqishlari va vaqtি	Faoliyat	
	Ta'lim byeruvshi	Ta'lim oluvshi
1 bosqish Kirish 10 daqiqa	<p>Mavzu: Jamiyat taraqqiyotining g'oya, mafkuralar bilan o'zaro bog'liqligi.</p> <p><u>Mashg'ulot ryejasi:</u></p> <ol style="list-style-type: none"> 1.Foya tushunchasi. Foyaning turlari. mafkura tushunchasining mohiyati-mazmuni 2.Bunyodkor g'oyalarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni 3.Vayronkor g'oya va mafkuralarning jamiyat 	

	<p>hayotiga ta'siri.</p> <p>4.Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurash tamoyilining mohiyati.</p> <p>Maqsadi: Talabalarga Jamiyat taraqqiyotining g'oya, mafkuralar bilan o'zaro bog'liqligi haqida tushuncha berish.</p> <p>Talabalarni baholash myezoni bilan tanishtiradi.</p>	<p>Tinglaydilar, aniqlaydilar.</p>
2 bosqish Asosiy 60 daqiqa	<p>2.1. Talabalarni 3 ta kishik guruxlarga ajratadi. Mavzu buyisha tayyorlangan topshiriklarni yeshishda «Muammoli vaziyat», «Akliy xujum» , « Baxs- munozara» usullaridan foydalanadi.</p> <p>2.2.Guruxlarni ishlash koidasi bilan tanishtiradi va savollvrni tarkatdi.</p> <p>2.3.Talabalar javobini sharxlaydi, xulosalarga e'tibor byeradi, aniklik kiritadi.</p> <p>2.4.Guruxlar faoliyatiga umumiyl ball byeradi.</p> <p>2.5.Talabalarga B.B.B. usuli bo'yicha ifodalangan jadvalni namoyish qiladi va ustunlarni to'ldirishni aytadi (3-ilova)</p>	<p>2.1. Guruxlarda ishslash koidasi bilan tanishadilar.</p> <p>2.1.Savollarga javoblarni byeradilar va muxokamada faol ishtirop etadilar.</p>
3-boskish YAkuniy (10 dakika)	<p>3.1. Mashgulotni yakunlaydi talabalarni baxolaydi va faol ishtiropshilarni ragbatlantiradi.</p> <p>3.2. Topshirik byeradi.</p>	<p>Eshitadilar</p> <p>Topshirikni oladilar</p>


B.B.B.usuli asosida bilimlarni sinash uchun tarqatma materiallar

	Tushucha	Bilaman «+» Bilmayman «-»	Bildim «+» Bila olmadim «-»
1	Vayronkor g'oya nima		
2	Terrorizim		
3	Mahalliychilik		
4	Millatchilik		
5	Fashizim		

«Kaskad» tyexnikasi

1-Ilova


Ushbu tyexnologiya g'oyalar tizimini ishlab chiqishga ko'mak byeradi: Asosiy maqsadi: aniq va ijodiy fikrlash qobiliyatini faollashtirish.



2-Ilova

«Baliq skelyeti» tyexnikasi

Ushbu tyexnologiya katta muammolarning yechimini topishga qaratilgan. Yuqori qismida muammolar turi yozilsa, pastki qismida esa misollar bilan izohlanadi.



O'rta asr bunyodkor g'oyalari:

I. O'rta Sharq bunyodkor g'oyalari va ta'limotlari:

- 1) Islom diniy ta'limoti. Qur'on va Payg'ambar Muhammad oliv hissalomning Hadislari.
- 2) Al-Xorazmiy (783–850 yi.).
- 3) Al-Farg'oniy (IX asr 861 y. vafot etgan).
- 4) Imom al-Buxoriy (809–869 yy.).
- 5) Abu Nasr Forobiy (873–950 yy.).
- 6) Abu Rayhon Beruniy (973–1048 yy.).
- 7) Abu Ali ibn Sino (980–1037 yy.).
- 8) Yusuf Xos Hojib (XI asr).

II. Tasavvuf: asosiy yo'nalishlari (tariqatlari) va asoschilari.

- 1) Yassaviy (Yusuf Hamadoniy (1048–1140 yy.), Hoja Ahmad Yassaviy (1041–1166 yy.)).
- 2) Qubraviya (Najmuddin Qubro: 1145–1221 yy.).
- 3) Naqbandiya (Xojagon). Abdusaliq G'ijduvoniy (1270 y. vafot etgan, Bahouddin Naqband (1318–1389 yy.).
- 4) Mavlaviya. Jololiddin Rumi (1207–1273 yy.).

O'rta asr Sharq bunyodkor g'oyalari:

Pahlavon Mahmud (1248–1325 yy.).

Amir Tyemur (1336–1405 yy.).

Alisher Navoiy (1441–1501 yy.).

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530 yy.).

Boborahim Mashrab (1640–1711 yy.).

Uyg'onish davri bunyodkor g'oyalari: Uyg'onish davri G'arb bunyodkor g'oyalari va ta'limotlari.

N.Makiavelli (1469–1527 yy.).

Tomas Mor (1478–1535 yy.).

Jordano Bruno (1548–1600 yy.).

Yangi davr G'arb bunyodkor g'oyalari va ta'limotlari:

F.Bekon (1561–1626), R.Dekart (1596–1650), T.Gobbs (1588–1679), D.Look (1632–1704), B.Spinoza (1632–1677), G.Leybnis (1646–1716).

Dj.Berkli (1685–1753), D.Yum (1711–1776), A.Voltyer (1694–1778), P.Golbax (1723–1789).

Nemis klassik falsafasining namoyondalari: I.Kant (1724–1804).

XVIII-XIX asr bunyodkor g'oyalari: XVIII-XIX asr Turkistondagi bunyodkor g'oyalar.

Nodira (1792–1843),

Uvaysiy (1789–1850),

Dilshod (1800–1906).

A.Donish (1827–1897),

Berdaq (1827–1900),

Furqat (1850–1903),

Avaz O'tar (1884–1919).

XX asr jadidchiligi.

M.Behbudiy (1879–1919),

M.Abdurashidxonov (1878–1931),

A.Fitrat (1886–1937),

A.Avloniy (1878–1934).

XX asr bunyodkor g'oyalari:

XX asr Hindiston. Moxandos Karamchand Gandhi (1869–1948).

XIX-XX asr Yevropadagi bunyodkor g'oyalari:

O.Kont (1798–1857), G.Spensyer (1820–1903), E.Dyurkgeym (1858–1917),
M.Veber (1864–1920), Fridrix Nisshe (1844–1900).

Dunyoviy va diniy g'oyalalar mushtarakligi tamoyillari:

1. Dunyoviylik.
2. Aqidaparastlik mafkurasi.

Mutloq haqiqatni da'vo qiluvchi g'oya va mafkuralar:

1. Kommunistik mafkura.
2. Fashistik mafkura.
3. Aqidaparastlik mafkurasi.

**«Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi
ma'rifat bilan kurashish» tamoyillari**

3-Mavzu: Globallashuv sharoitida miliy g’oyaga ehtiyojning ortishi. Mafkuraviy immunityetni shakllantirish – xavfsizlik va barqarorlik omili.

Ma’ro’za mashg’uloti ta’lim tyexnologiyasining modyeli

O’quv vaqtি 2 soat	Talabalar soni 80- 90
O’quv mashg’ulotining shakli va turi. Ma’ro’za ryejasи.	<p>1. Globallashuvi tushunchasi. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi.</p> <p>2. Globallashuv jarayonlarining ijobiy va salbiy oqibatlari</p> <p>3. Mafkuraviy immunityet tushunchasi uning mohiyati va asosiy unsurlari.</p> <p>4. Yoshlar ongiga mafkuraviy immunityetni shakllantirish- milliy istiqlol g’oyasining asosiy omillaridan biri</p>
O’quv mashg’uloti maqsadi:	Talabalarga : Globallashuv sharoitida miliy g’oyaga ehtiyojning ortishi. Mafkuraviy immunityetni shakllantirish – xavfsizlik va barqarorlik omili haqida tushuncha berish.
Pyedagogik vazifalar: Mavzuning tub mohiyatidan kyelib shiqqan holda, ma’ro’zani muayyan qismlarga bo’lish, har bir qismni o’zaro mantiqiy bog’liqlikni ta’minlash, oshib byerish, tushuntirish, shakllantirish.	O’quv faoliyatining natijalari: Globallashuvi tushunchasi. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi. Globallashuv jarayonlarining ijobiy va salbiy oqibatlari Mafkuraviy immunityet tushunchasi uning mohiyati va asosiy unsurlari. Yoshlar ongiga mafkuraviy immunityetni shakllantirish- milliy istiqlol g’oyasining asosiy omillaridan biri haqida tushunchaga ega bo’ladi, mazmunini yorita oladi, tavsiflaydi
Ta’lim usullari	Ma’ro’za, muloqot, aqliy hujum,
O’quv faoliyatining tashkil qilish shakllari.	Jamoa, guruhlarda ishlash.
Ta’lim vositalari.	Ma’ro’za matni, auditoriya doskasi, darslik, ko’rgazmali qurollar.
Monitoring va baholash	Og’zaki so’rov: Tyezkor so’rov.

**3-MAVZU: Globallashuv sharoitida miliy g'oyaga ehtiyojning ortishi.
Mafkuraviy immunityetni shakllantirish – xavfsizlik va barqarorlik omili.**


Ma’ro’zaning tyexnologik xaritasi.

2 soat

Ishlash bosqishlari Vaqtি	Faoliyat	
	Ta’lim byeruvshi	Ta’lim oluvshi
1 bosqish Kirish 10 daqiqa	<p>Globallashuv sharoitida miliy g'oyaga ehtiyojning ortishi. Mafkuraviy immunityetni shakllantirish – xavfsizlik va barqarorlik omili.</p> <p>Mashg’ulot ryejası:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1.Globallashuvi tushunchasi. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi. 2. Globallashuv jarayonlarining ijobiy va salbiy oqibatlari 3. Mafkuraviy immunityet tushunchasi uning mohiyati va asosiy unsurlari. 4. Yoshlar ongiga mafkuraviy immunityetni shakllantirish- milliy istiqlol g'oyasining asosiy omillaridan biri <p>Maqsadi:Talabalarga globallashuv sharoitida miliy g'oyaga ehtiyojning ortishi. Mafkuraviy immunityetni shakllantirish–xavfsizlik va barqarorlik omili haqida tushuncha berish.</p>	Tinglaydilar aniqlaydilar va muhim joylarini yozib boradilar.
2 bosqish Asosiy 60 daqiqa	<p>2.1. Talabalar e’tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash ushun tyezkor savol-javob o’tkazadi.</p> <p>2.2. O’qituvshi visual materialdan foydalangan holda ma’ruzani bayon etishda davom etadi. (1-3 ilovalar namoyish etiladi)</p> <p>Sharq-jahon sivilizasiyasi markazlaridan biri, Misr, Bobil falsafasi Qadimgi Hind va qadimgi Xitoy falsafasi qadimgi Yunoniston</p>	Tinglashadi, savol byerishadi, javoblarni eshitishadi. Ta’riflarni yozib oladilar. Ma’lumotlarni umumlashtirib bilimlarni shukurlashtiradilar

	<p>va Rim falsafasi.</p> <p>2.3. Talabalarga mavzuning asosiy tushunshalariga e'tibor qilishni va yozib olishlarini ta'kidlaydi.</p>	
3-boskish YAkuniy (10 dakika)	<p>3.1. Mavzuni mustahkamlash ushun savollarga javob byeradi.</p> <p>3.2. Mustaqil ish ushun topshiriq byeradi.</p> <p>3.3. Darsni yakunlaydi.</p>	Savol byeradilar, aniqlaydilar.

DUNYoNING MAFKURAVIY MANZARASI 1-ilova




«XXI asr - shiddatkor tyezliklar asri, axborot va axborot tyexnologiyalari asri, intyellyektual resurslar, yuksak tyexnologiya va zamonaviy bilimlar insoniyat taraqqiyotining asosiy va hal qiluvchi omiliga aylanayotgan davrdir».

Islom Karimov

«O'tkir aql, tyeran fikr egasi baxtiyor insondir».

Suqrot



Globallashuv (lot. globus – er kurrası) deb nomlandı. Globallashuv jamiyat hayotining turli jabhalarida butun Er sayyorasi uchun yagona bo’lgan tuzilmalar, aloqalar va munosabatlarning shakllanishi, universallashuv jarayonidir. SHuningdek globallashuv global makonning tutashligi, yagona jahon xo’jaligi, umumiyligini o’zaro aloqadorlik, global kommunikatsiyalar va shu kabilar bilan tavsiflanadi.

O’quv materiallari

1. Globallashuv tushunchasi uning ma’no mazmuni va insoniyat taraqqiyotdagi o’rni masalasiga qiziqish ortib bormoqda. Globallashuv jarayoni yer yuzidagi mamlakat va xalqlarni shu darajada uzviy bog’lab qo’ymoqdaki bu ni bashariyat tarixida shu paytga qadar hyech qaysi vosita amalga oshira olmagan. Bu jarayon shunchalik kuchayib bormoqdaki hozirdanoq dunyoning biron bir hududi uning ta’siridan hali qolayotgani yo’q. O’tgan asrning oxirlarida paydo bo’lgan globallashuv atamasi jahon mamlakatlari iqtisodiy va ma’naviy hayotining yalpi umumlashib borayotganini ifoda etar edi.

Globallashuv shunday jarayonni undan chetga turaman degan mamlakatlar uning ta’siriga ko’proq uchrab qolishi mumkin. Bunday g’ayri ixtiyoriy ta’sir esa ko’pincha salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Mustaqillik davrida mamlakatlarimiz olimlari o’tkazgan va o’tkazayotgan tadqiqotlar tahlili bu sohadagi ishlar endigina boshlanayotganidan darak beradi.

Globallashuv milliy ma’naviyatga ham ta’sir o’tkazadi. Har qanday siyosat, jumladan iqtisodiy-siyosat va ma’naviyat sohasidagi siyosat ham ilmiy asosga ega bo’lgandagina muvafaqqiyat keltirishini nazarda tutsak bu masalada olimlarimiz siyosatchilari shunga yetarli ko’mak berishlarini e’tirof etishga to’g’ri keladi.

Globallashuvga berilgan ta’riflar juda ko’p lekin uning xususiyatlarini to’laroq qamrab olagani, bizningcha fransuz tadqiqotchisi B. Bandi bergen ta’rifdir. Unga globallashuv jarayonining uch o’lchovli ekaniga urg’u beriladi.

Bu ta’rifga keltirilgan globallashuv o’lchovlarining har o’lchashga nisbatan ham muayyan e’rozlar bildirishi mumkin. Lekin jahonda yuz berayotgan jarayonlarni kuzatsak ularning har o’lchovi ham unda mavjud ekanini ko’ramiz. Globallashuv tarafдорлари globalistlar deb ataladi. Ular orasida davlat arboblari siyosatdonlar, sanoatnhchi va biznesmenlar ko’proq uchraydi.

Rossiyada bo’lib o’tgan Aksilgloballashuv sektorlari anjumanidagi ma’ruzasi A. Parshovil fikricha globallashuvnnig asosiy mazmuni boshqa mamlakatlarga ishlab chiqarilgan.

O’tgan asrning oxirlarida paydo bo’lgan “globallashuv” atamasi jahon mamlakatlari iqtisodiy va moliyaviy hayotining yalpi umumlashib borayotganini

ifoda etar edi. Bugungi kunga kelib esa u keng qamrovli tushunchaga aylandi. U davlatlar va xalqlar hayotining barcha sohalarida yalpi umumlashuv jarayonini anglatmoqda. Garchand globallashuv jarayoni birdaniga paydo bo'lib qolmagan, balki inson yaralgan paytdan boshlab sodda va tabiiy shaklda davom etib kelgan bo'lsada, hozirgi vaktda insonning o'z manfaatlari yo'lida tabiiy rivojlanish jarayoniga zo'ravonlarcha aralashuvi natijasida shiddatli ravishda tezlashib ketdi.

Albatta, bir tomondan qaraganda, bu jarayonning ijobiy jihatlari ham yo'q emas. Chunonchi, ko'pgina mamlakatlarga fan-texnika, texnologiya yutuklarining jadal kirib kelishi globallashuv tufayli. Bu esa ularning iqtisodiy hayoti rivojiga, xalqlar turmush darajasining ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu tariqa bashariyatning umumiyl intelлектual salo-hiyati yuksalishiga yordam bermokda.

Ikkinci tomondan, globallashuvning salbiy oqibatlari ham ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Jumladan, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy tafovutlarning kuchayishi, ayniqsa, zamonaviy telekommunikasiya, kompyuter, internet vositalari orkali biron bir hududga xos milliy-manaviy qadriyatlarni o'zga xalklarga singdirish va shu yo'l bilan jahonda nafaqat iqtisodiy, balki milliy-ma'naviy hukmronlikni o'rnatishga urinish hollari ham kuzatilmoqda. Bu jarayon XXI asrga kelib XX asrdagiga Karaganda ham keng qamrov kasb etdi, ta'sir imkoniyatnim oshirdi, eng yomoni, ko'pgina rivojlangan mamlakatlar jahonda iqtisodiy integrasiyani kuchaytirish, fan-texnika, texnologiya, ta'lim sohasida rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam berish, demokratik qadriyatlarni keng yoyish bahonasida milliy-ma'naviy ta'sir o'tkazishga harakat qilmokda. Shu jihatdan qaraganda, globallashuv jarayoni endigina rivojlanish yo'liga kirgan yoki rivojlanayotgan mamlakatlardan ko'ra yuksak taraqqiy etgan davlatlar manfaati uchun ko'proq xizmat qilmoqda. Qudratli davlatlar, ulkan imkoniyatlariga tayangan holda, kam taraqkiy qilgan mamlakatlarning moddiy resurslarini o'zlashtirmokda, bozorlarini egallamokda. Bu esa iqtisodiy zaif mamlakatlarning taraqqiyot borasida mustaqil yo'l tutish imkoniyatlarini cheklab ko'yayotir. Chunki ishlab chiqarishni tashkil kilish va amalga oshirish uchun zarur texnika, texnologiya hamda ilmiy ishlanmalar rivojlanayotgan mamlakatlarning o'zida tayyorlanmay, chetdan olib kelinmoqda. Shu tariqa rivojlanayotgan mamlakatlar yuksak taraqqiy etgan mamlakatlarga bog'lanib qolishga, ^J yana ham aniqrog'i, qaramlikka mahkum bo'layotir. Boshqacha aytganda, globallashuv bosqinchilikning yangi bir shaklini boshlab bermokda.

Albatta, bu xali holva. Eng dahshatlisi — ana shu texnika va texnologiya, ishlab chiqarish munosabatlari bilan birga begona ma'naviy xayot turmush

madaniyati unsurlari ham kirib keladi. Agarda ular xalqning milliy tuyg'u va dunyoqarashi mentalitetiga ziyon yetkazmasa, millat rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatmasa albatta, xavotirlanishga hojat bo'lmas edi. Afsuski, yot ma'naviy ta'sirlar milliy ma'naviyat va dunyoqarash o'rnini egallahsga urinadi. Bundan tashqari, eng zamonaviy telekommunikasiya, kompyuter, internel: qabi vositalar orqali milliy. o'ziga xoslikka zid, uni barbod qilishga karatilgan zamirida faqat foyda olishdan boshqa hyech qanday ibratli maqsad bo'lмаган оммавиј ма'naviyat va madaniyat namunalari — axloqsiz filmlar, teleseriallar, ahmoqona shou-tomoshalar kirib kelaveradi.

Bu jarayonda milliy til, milliy qadriyat va qarashlar, go'yoki yetim qo'zideq, bir chetga chiqib qoladi. Agarda buning vaktida oldi olinmasa, milliy o'ziga xoslikning barbod bo'lismi kuchayib boraveradi. Bu esa butun insoniyat uchun katta fojiadir. Chunki inson bolasining ulug'ligi, avvalo, uning o'z millatini anglashi, undan faxrlanib yashashida namoyon bo'ladi. Milliy tuyg'u millat oldida katta mas'uliyat bilan yashash, mehnat qilish, fidoyi bo'lismi undaydi. Bu tuyg'u ertangi kunga ishonchni orttiradi. Demak, milliyatni vmglamagan inson o'zining kimligini bilmagam manqurtdir. Insoniyatni asrash kanchalik buyuk va muqaddas ish bo'lsa, millatni asrash ham shundan kam emas. Millatning vakili ekanini his etib yashash muqaddas tuygudir. O'zini anglagan, kadrlashni bilgan insongina bunday fazilatga ega bo'ladi.

Milliy o'ziga xoslikka qarshi ta'sirning avj olishi nafaqt yuzaga kelayotgan taxdidni anglash, balki uning oldini ol ish uchun amaliy faoliyatni kuchaytirishni ham taqozo etadi. Bu borada, ayniqsa, milliy ma'naviy immunitetni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy ma'naviy immunitet millatning barkaror rivojlanishi uchun zarur bo'lgan intellektual sapohiyatning mavjudligi. unga extiyojning ortib borishi va har kanday tashqi taxidlarga qarshi tura oladigan, ulardan kuchli hamda ustun bo'lgan milliy ma'naviy imkoniyatdir. Boshqacha aytganda, milliy ma'naviy immunitet tashqi ta'sirga beriladigan javob, unga qarshi tura oladigan ma'naviy ruhiy kuch-quvvatdir. Milliy ma'naviy immunitetni rivojlantirish va mustahkamlashda quyidagi omillarni shakllantirish xamda ulardan samarali foyda-lanish amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

Birinchidan, milliy intellektual sa-lohiyatni rivojlantirish va undan samarali foydalanish. Buning uchun ta'lim va milliy tarbiyani rivojlantirish, urf-odat, an'ana va qadriyatlarni umumbashariy qadriyatlarga uyg'un holda yoshlar dunyoqarashining ajralmas qismiga aylantirish. Toki yoshlar umumbashariy qadriyatlar bilan birga o'z millati kadriyatlarining boyligi va go'zalligini ham chuqur his etsin. Ularga milliy

ma'naviyatning asosiy manbasi sifatida karaydigan bo'lzin. Ammo bu oson emas. Chunki bugun jahonda inson qalbi va ongini egallaig millat ma'naviyatini yot goyalar bilan almashtirish, oxir-oqibatda millionlab odamlar ustidan ma'naviy xukmronlik o'rnatish uchun juda katta mablag', kuch-kudrat ishga solinmokda.

Ba'zan bunday vaziyatda hayotiy tajribaga ega bo'limgan, moddiy jixatdan qiynalayotgan ayrim yoshlar najotni tashqaridan izlashga harakat qiladi. Bundan tashqari, yoshlarga xos qizikuvchanlik, oqibatini o'yamasdan ish tutish ham milliy ma'naviy immunitetning zaiflashuviga sabab bo'ladi.

Yuksak intellektual salohiyat milliy ma'naviy immunitetni shakllantirish va mustahkamlashning asosiy omili hisoblanadi. Uning yuksalishiga erishish orkali yoshlarning ma'naviy ehtiyojini milliy ma'naviy boyliklarimiz bilan qondirishimiz, ularni turli g'oyaviy xurujlardan himoya qilishimiz mumkin. Bu vazifani amalgalashda millatning aql-ziyo salohiyati o'zagini tashkil qiladigan ziyolilardan samarali foydalanish, ularni faollashtirish, buning uchun zarur chora-tadbirlarni ko'rish lozim bo'ladi.

Milliy intellektual salohiyati yuksak bo'lgan millatgina mamlakatni taraqqiyotga olib boruvchi milliy g'oyalarni ishlab chikishi va ularni amaliyotga tatbiq qilishi mumkin. Jahan tajribasi shuni ko'rsataliki, intellektual saloxiyati rivojlanmagan millat jaholatga mahkum bo'lib yashaydi. Demak, milliy intellektual salohiyatni oshirish, u hakda doimiy g'amxo'rlik qilish milliy ma'naviy immunitetni izchillik bilan mustaxkamlashning asosiy sharti hisoblanadi.

Shuning uchun ham turli taxdidlar kuchayib borayotgan hozirgi davrda mamlakatimizda milliy intellektual salohiyatni oshirish masalasiga katta e'tibor berilmokda. Yurtimizda barpo etilayotgan yangi-yangi maktablar, lisey va kollejlar, zamonaliviy oliy o'kuv yurtlari, madaniyat muassasalari, amalgalashda oshirilayotgan kator davlat dasturlari — barchasi ana shu maqsadga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, milliy ma'naviy immunitetni shakllantirishning yana bir omili millatning manfaat va maksadlarini o'zida ifoda etadigan milliy taraqqiyot g'oyasini ishlab chiqish va uni hayotga tatbiq etishdir. Milliy taraqkiyot g'oyasi real hayot talablaridan uzoq bo'lib, millatning orzu-intilishlarini as ettirmasa, quruq nazariyadan iborat bo'lib qoladi, hyech kachon moddiy kuchga aylanmaydi. Milliy rivojlanish g'oyasi milliy g'oyaning aynan uzi emas. balki millatni aniq maqsad sari intilishga, yuksak taraqqiyotga davat qiladigan, ularni hayotiy ehtiyojga aylantiradigan ilmiy-nazariy konsepsiadir. Milliy g'oya ko'proq milliy o'zlikchi ifoda etadigan, unga amaliy ma'no-mazmun bag'ishlaydigan manba hisoblanadi. Milliy g'oya o'zgarmas va asosiy manba bo'lsa, milliy taraqqiyot g'oyasi millat ehtiyoji, uni rivojlantirish

vazifalaeining ko'lamiga qarab takomillashib, xayotiy tajriba va talablar tufayli kengayib, ularni o'zida aks ettirib boradi.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq bu masalalarga katta e'tibor berildi. Prezident Islom Karimov tomonidan O'zbekistonning taraqqiyot konsepsiye hamda milliy istiqlol g'oyasi asosiy tushuncha va tamoyillari ishlab chiqildi. Bu yaxlit ta'limot hozirgi vaktda xalkimiz ma'naviy hayotining uzviy bir qismiga aylanib ketdi.

Ta'kidlash lozimki, milliy taraqqiyot g'oyasi millatning shakllanishi, rivojlanishi va yuksalishida muhim manba bo'lib qolaveradi. Xalq va millat hayotida sodir bo'ladigan tub burilish bosqichlarida uning tarkibiy qismi bo'lgan g'oyalar ustuvor darajaga ko'tarilishi mumkin. Yurtimizning mustamlaka holatiga tushib qolishi va ozod bo'lishi milliy istiqlol g'oyasiniing shakllanishiga hamda uning yetakchi g'oyaga aylanishiga olib kelgani bunga misol bo'la oladi. Bugun xalqimiz ana shu g'oyani moddiy kuchga aylantirdi, istiqlolni ko'lga kiritdi va mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotir. Shu ma'noda buguch milliy istiklol g'oyasini milliy ma'naziy immunitet asosi sifatida yoshlarimizning qalbi va ongiga singdirishimiz talab etilmokda.

Bugun xalkimizning yuksak maqsad-muddaolarini o'zida ifodalagan milliy taraqqiyot g'oyask istiklolimizni yanada mustahkamlash, iqtisodiy yuksalishga erishish, milliy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlar, milliy intellektual saloxiyatni oshirish, milliy meros, urf-odat va qadriyatlarni zamon talablari asosida boyitish, millat ma'naviyatiga qarshi qaratilgan tahdidlarga tayyor bo'lish, globallashuv sharoitida milliy o'ziga xoslikni asrash, uning ta'siri ostida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan buzg'unchi "ma'naviyat"ga nisbatan milliy ma'naviy immunitetni shakllantirish, jahon hamjamiyatidan munosib o'rinn egallash kabi o'ta muhim vazifalarni nazarda tutadi.

Uchinchidan. milliy ma'naviy immunitetni shakllantirish va mustahkamlashning muhim omillari qatorida demokratik kadriyatlar xam muhim o'rinn tutadi. Demokratiya nafaqat jamiyat a'zolarining hokimiyat boshqaruvida keng miqyosdagi ishtiroki, ayni paytda inson huquq va erkinliklarining ta'minlanishini ham taqozo etadi. Chunki erkin insongina iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlarini qondira olishi mumkin. Shuning uchun ham inson xukuq va erkinliklari millatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega.

Aslida demokratik qadriyatlar tizimining asosini ham har bir fuqaroning erkin faoliyati uchun yaratilgan imkoniyatlar tashkil qiladi. Chunki erkinlik siyosiy huquklarning to'laqonli mavjudligi va ulardan amalda foydalana bilish bilangina

cheklanib qolmaydi. Balki insonning o’z xohishiga ko’ra yashashini ham taqozo etadi. Bu har bir inson uchun nafaqat katta imkoniyat, ayni vaqtida mas’uliyat hamdir. Chunki jamiyatda barqarorlik yetarli, davlat turli xavf-xatarlardan xoli bo’lsa, har bir inson erkinligining daxlsizligi ta’minlanadi.

Demokratik qadriyatlar rivojining sekinlashuvi yoki orqaga ketishi inson erkinligiga xam salbiy ta’sir ko’rsatadi. Buning natijasida inson jamiyat hayotidagi jarayenlarga beparvo qaraydigan, ular uchun mas’uliyatni davlat zimmasiga yuklaydigan bo’lib qoladi. Bunday vaziyatda o’z-o’zidan ma’naviy immunitet zaiflashadi, ayniqsa, hayotiy tajribaga ega bo’lmagan yoshlarda vaziyatni to’g’ri baholay olmaslik holatlari kuchayib boradi. Bu esa oxir-oqibatda jamiyat va fuqaro o’rtasidagi munosabatlarda muvozanat yo’qolib, fuqaro mas’uliyatsizligining kuchayishi, ma’naviy immunitetning barbod bo’lishiga olib keladi.

Bosiqlik, vazminlik, jamoa fikri ustuvorligiga erishgan millat milliy ma’naviy immunitetida konservativizm kuchli bo’ladi. Ammo bunday immunitet ham hayot talabi bilan zamonga moslashib boradi. Tabiiyki, bu millat istiqboliga qaratilgan xavfning oldini olishga yordam beradi. Ko’rinib turibdiki, milliy-ma’naviy immunitetni shakllantirishda umum-e’tirof etilgan demokratik qadriyatlarning inson erkinligi bilan bog’liq ustuvor yo’nalishlarini rivojlantirish muhim amaliy ahamiyatga ega.

To’rtinchidan, milliy ma’naviy immunitetni shakllantirishda milliy tarbiyaning ahamiyati katta. Xo’sh, milliy tarbiyaning o’zi nima? Milliy tarbiya milliy meros, urf-odat, an’ana va kadriyatlar orkali yoshlarda milliy ong, dunyoqarash va ruhiyatni shakllantirish. Ularning o’zligini anglatish, xalq va Vatan oldidagi mas’uliyatini yuksaltirish borasidagi faoliyat yo’nalishini bildiradi. Ko’rinib turibdiki, milliy tarbiya faqat milliy ma’naviyatni rivojlantirish bilan cheklanmasdan, milliy ma’naviy immunitetni shakllantirishning ham muhim omilidir.

Milliy tarbiya oiladan boshlanadi, mahalla va ta’lim tizimida davom ettiriladi. Milliy ongi rivojlangan, o’zligini anglagan, dunyoqarashi shakllangan inson xalqi va Vatanini ulug’laydi, el-yurt oldidagi mas’uliyatini tushunib, uning manfaatini himoya qiladi. Vatan, xalq inson uchun eng oliy ne’mat, ulug’ ma’naviy boylik ekanini doimo his etib yashaydi. Lekin bugungi globallashuv ja-rayoni milliy tarbiyaga xdm salbiy ta’sir o’tkaza boshladidi. Bugun ma’naviy hayotimizga yot urf-odat va an’analalar, axloqsizlich taxdid solmoqda. Albatta, biz o’zimiz uchun maqbul bo’lgan odat va an’analarni qabul qilishimiz mumkin. Ammo ularni ko’r-ko’rona qabul qilish jaholat alomatidir.

Masalan, asrlar osha qon-qonimizga singib ketgan ota-onani ulug'lash, oilani muqaddas saqlash, farzandning burchi, kattaga hurmat, kichikka izzat, o'zaro mexroqibat, iffat, or-nomus, hayo kabi fazilatlar, ustoz va shogirdlik odobi kabi ezgu qadriyatlarga sodiq qolish milliy tarbiyamizda muhim ahamiyatga ega. Ammo bugun Ovrupoga xos individualizm, ota-onaning holidan xabar olmaslik, hatto ular vafot etganda oxirgi manzilga kuzatishga yaramaslik, aka-uka, opa-singillar o'rtasidagi yaqinlikning yo'kligi singari mentalitetimizga yot bo'lган qator xususiyatlar global-lashuv tufayli millatimiz hayotiga kirib kelmoqda.

Iqtisodiy muammolarni bugun bo'lmasa, ertaga albatta xal etish mumkin. Lekin milliy ma'naviy immunitetimizdan, o'zligimizdan mahrum bo'lib qolsak, untiplash oson kechmaydi. Shuning uchun ham Prezidentimiz "Mafkura poligonlari yadro poligonlariga nisbatan ham ko'proq kuchga ega" deb hammamizni g'oyaviy va ma'naviy xatarlardan ogoh etgan edi.

Milliy tarbiyada nimani kimlardan olish emas, balki nimanidir kimgadir berish masalasi e'tibor markazida turishi lozim. Bu borada jahonda eng yuksak taraqqiyotga erishgan, o'zining milliy qadriyatlarini asrab-avaylab, avloddan-avlodga meros qilib kelayotgan yaponlar tajribasidan o'rgansak arziyi. Milliy g'urur va iftixon, millat istiqboli uchun kurashda kuchli yakdillik bo'lgani uchun ham bu xalq shunday taraqqiyotga zrishdi. Yapon ma'naviyatida, hatto bugungi globallashuv zamonida ham, tanki ta'sir alomatlarini sezish qiyin. Ishlab chiqarishni tashkil qilish, ilg'or texnika va texnologiyalarni yaratish hamda jahon bozorlarini egallahda yaponlar uchun milliy tarbiya muhim o'rinn tutgani ko'pchilikka ayon. Biz bunday tajribadan samarali foydalansak, aslo yutqazmaymiz.

Shu munosabat bilan globallashuvning bugungi milliy hayotimizga ta'siridan himoyalanishda milliy istiqlol g'oyasi asosiy tushuncha va tamoyillarini keng targ'ib etish, ta'lim tizimida bu borada yaratilgan darslik va o'quv ko'llanmalarini o'qitish sifatiga e'tibor berish zarur, deb o'yayman.

Beshinchidan, milliy ma'naviy immu-nitetni shakllantirish va mustahkamlashning yana bir omili — zamonaviy axborot vositalaridan samarali foydalanishdan iborat. Albatta, axborot vositaplari keng qamrovli bo'lib, faqat radio, televide niye, matbuot nashrlari, kompyuter, internet bilan cheklanmaydi. U kutubxona va muzeylar, badiiyat va san'at asarlari, ko'rgazma zallari, kitob, telefon, video, audio kabi ko'pdan-ko'p vositaparni ham qamrab oladi. Mustaqillik yillarida yurtimizda zamonaviy axborot vositalarini rivojlantirish borasida juda katta ishlar amalga oshirildi. Ammo yaratilgan kulay imkoniyatlardan samarali foydalanyapmizmi, degan savolga ijobjiy javob berish qiyin. Zamonaviy axborot vositalaridan foydalanish qanchalik samarali bo'lyapti, bu sohada kim monitoring olib

boryapti, yutuq va kamchiliklarimiz nimadan iborat, kelajakda qanday ishlar kilishimiz lozim? Bu masalalar bilan kim shugullanmokda? Xullas, zamonaviy axborot texnologiyalaridan talab darajasida foydalana olish milliy tarbiyamizdagi asosiy vazifalardan bo'lib qolmokda.

Bundan tashqari, milliy ma'naviy immunitetimizni mustahkamlashga xizmat qiladigan, yot g'oya va mafkuralarning mohiyatini ochib boradigan badiiy yuksak asarlar yaratish ham ko'ngildagidek emas. Yaratilayotganlari ham keng tomoshabin va kitobxonlargacha yetib bormayapti. Buning o'rniga aholi gavjum maydonlar, ko'cha va xiyobonlarda xorijiy mamlakatlarda yaratilgan, aksariyati milliy ma'naviyatimizga zid g'oyalar hamda axloqsizlikni targ'ib etadigan video va nashr mahsulotlari sotilayotganini ko'ramiz. Xaridorlarni (ular asosan yoshlar) kitob, jurnal va gazetalarda e'lon qilinayotgan maqolalarning mazmuni emas, balki ulardagi behayo rasmlar ko'proq qiziktirayotgani ko'pchilikka ayon. Aytish mumkinki, bugun yurtimizga turli yo'llar bilan keltirilayotgan xorijiy mamlakatlarning kitob, jurnal yoki gazetalari hamma vakt ham aholi ma'naviyatini boyitishga xizmat qilmaydi.

Albatta, bu o'rinda gap ularni sotishni man qilish hakida ketayotgani yo'q. Bu nashrlarning milliy ma'naviy immunitetimiz zaiflashishiga ta'sir o'tkazayotgani, bu muammoga qarshi zarur choralar ko'rish, uning oldini olish yo'llarini topish to'g'risida ketmoqda. Bu borada milliy hayot tarzimiz, merosimizni keng targ'ib qiladigan kitob do'konlarini ko'paytirish, mustaqillik yillarida yaratilgan kitoblarni ommalashtirish, odamlarning fikrlash saviyasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Eng yaxshi badiiy va ilmiy asarlarni bosmadan chiqarish va ommalashtirishda davlat idoralari bilan birga, xorijiy mamlakatlarda bo'lgani kabi, homiylar, nodavlat tashkilotlar imkoniyatlarini jalb qilishga erishish zarur bo'ladi.

Bugun birgina Toshkent shahrida o'zimizda chop etilgan kitob va vaktli matbuot mahsulotlariga qaraganda xorijdan keltirilib, aholiga sotilayotgan nashrlar bir necha barobar ko'p ekani bizning hozirdanoq fikr musobaqasida, axborot maydonida imkoniyatni boy berib ko'yayotganimizni ko'rsatadi.

Xullas, dunyo miqyosida globallashuv jarayoni avj olayotgan bugungi kunda milliy ma'naviy immunitetimizni mustahkamlashga yordam beradigan barcha imkoniyat va vositalardan samarali foydalanish milliy o'zligimizni saqlab qolish, uni har qanday tashqi ta'sirlardan ximoya qilishda katta amaliy ahamiyatga ega bo'lib qolaveradi.

2. XXI asr bo'sag'asiga kelib dunyoning siyosiy manzarasi tubdan o'zgardi, ikki qutbli dunyo barham topdi, nisbiy muvozanat buzildi. Dunyodagi ikki qutbning biri bo'lgan sobiq sosialistik lager tarqalib ketdi. Uning eng katta va totalitar tuzum

hukmron bo'lgan asosiy davlati - sobiq ittifoq o'tmishga aylandi. Bu davlatning o'mida mustaqil mamlakatlar yuzaga keldi. Mustabid mafkura g'oyalaridan xalos bo'lgan xalklar uz milliy davlatchilik an'aialarini tikladi.

«Bugungi kunda aksariyat rivojlangan davlatlarning mafkurasi umuminsonii qadriyatlar va demokratik tamoyillarga asoslanadi. Ularda tinchlik va tarakqiyot, inson xak-xukuklari va erkinligi, milliy va diniy totuvlik g'oyalari ustuvordir». Bu tamoyillarga asoslangan ezgu g'oyalalar umuminsonii manfaatlar bashariyatning asriy orzusi bo'lgan yorug' kelajak uchun xizmat qiladi.

Lekin, ming afsuski, hozirgi vaqtida dunyoning mafkuraviy manzarasida turli vositalar orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgan tajovuzkor millatchilik, shovinizm, neofashizm, irqchilik, diniy ekstremizm kabi siyosiy kuchlar va okimlar xam bor. Bunday g'ayriinsoniy, buzg'unchi g'oyalalar xalklar boshiga so'ngsiz kulfatlar keltirib, insoniyatning tinchligi, osoyishtaligini buzib, odamlar boshiga turli balolar yog'dirmoqda. Afg'onistonda yigirma yildan ortiq davom etayotgan birodarkushlik urushi, Bolqon mintaqasida mustahkam tinchlik o'rnatishga haligacha erishilmayetganligi ana shuday buzg'unchi mafkuralarning ta'siri oqibatidir.

- Bugungi kunda nafaqat inson ongini, balki qalbini ham egallash mafkuraviy kurashning bosh maqsadidir. Shuning uchun ham Yer yuzining turli mintaqalari xalqlarining ongi va qalbi turli g'oyalarni sinash maydoniga, mafkuraviy poligonga aylantirilmokda.

Ana shunday sharoitda xalqning barcha qatlamlariga berilayotgan bilimlar obyektiv, voqyelikni to'liq va to'g'ri aks ettirishi, jamiyat taraqqiyotiga, Vatan va xalq manfaatlariga, qadriyatlarni saklashga xizmat qilishi lozim.

Bu boradagi bilimlar qanchalik obyektiv va chuqr bo'lsa, uning zamirida yuzaga kelgan qadriyatlar ham shunchalik ustuvor bo'ladi. Ularni egallagan odam mafkuraviy tajovuzlarga munosib zarba beradi. Bunga erishish jarayoni nihoyatda serqirra bo'lib, u o'z mohiyatiga ko'ra, yot g'oyalalar kirib kelishining oldini olish va ularni yo'qotishga qaratilgan chora-tadbirlar, g'oyaviy-tarbiyaviy, siyesiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy ishlar majmuini o'z ichiga oladi.

Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi. *Xrzirgi davr-dunyoda goyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchlirok bo'lib borayotgan davrdir.*

Dunyoning hududiy jihatdan turli mintaqa va qit'alarga bo'linishini geografiya darslaridan yaxshi bilamiz. Jahonning siyosiy xaritasiga qarab va mavjud

davlatlarning chegaralarini hisobga olgan holda ham Yer yuzining hududiy bo'linishini bemalol tasavvur qila olamiz.

Insoniyat XXI asr oxiriga kelib bir qator chegara bilmaydigan muammolarga duch keldi. Urush va tinchlik, ekologik falokatlar, ma'naviy qashshoqlik, narkobiznes, terrorizm kabi muammolar ana shular jumlasidandir. Shu bilan birga dunyoda globallashuv, axborot oqimining tezlashuvi va intensivlashuvi, universal texnologiyalar bilan bog'liq umumbashariy jarayonlar ham bormokda. Butun Yer yuzi odamzot uchun yagona makon ekanligi aniq. Bunga shak-shubha yo'q, albatta. Ammo tarixda mavjud chegaralarni o'zgartirish, muayyan hududlarni bosib olish uchun son-sanoqsiz urushlar bo'lgani ma'lum. Bu jarayonda esa urush qurollari muntazam takomillashib borganini bilamiz. Mazkur urushlar to XX asrgacha asosan ko'proq bir davlat ichida, ikki davlat o'rtaida yoki nari borganda bir mintqa doirasida bo'lishi mumkin edi. To'g'ri, aytaylik, Aleksandr Makedonskiy, Chingizxonning ulkan davlat barpo etish uchun yoki o'rta asrlardan boshlab yevropalik istilochilarining boshqa qitalarni zabit etish uchun olib borgan urushlari qo'lami jihatidan ajralib turadi. Ammo bunday holatlar istisno hodisalar sifatida baholanmog'i kerakka o'xshaydi. XX asrda ro'y bergan ikkita jahon urushida o'nlab davlatlar, bir necha qita mamlakatlari ishtirok etganligini eslasak, bunday xulosa muayyan darajada o'rinli ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin. Urush qurollari takomillashib boraverdi. Bugungi kunda ular boshqa hududni bosib olish uyokda tursin, balki butun Yer sayyorasidagi hayotni bir necha marta yo'q qilib tashlashga yetadi.

Kishilik jamiyati tarixi insonda oljanob fazilatlarning shakllanishi va rivojlanishiga ham, ayni paytda g'ayri insoniylikning xilma-xil ko'rinishlari ildiz otib o'zining mudhish qiyofasini namoyon qilishiga ham ko'p bor guvoh bo'lgan. Afsuski, insoniyatning butun tarixi davomida bunday illatlar unga hamrohlik qilib keldi, turli davrlarda yangi shakl-shamoyil, xususiyat kasb etdi. Bugungi kunda ularning eng yovuzlari Yer yuzidagi tinchlik va totuvlik, hamkorlik hamda hamjihatlikka va oxir-oqibatda insoniyatning yagona birlik sifatida erkin taraqqiy qilishiga katta xavf tug'dirmokda.

Bugun dunyoning mafkuraviy manzarasini o'z maqsadlari yo'lida o'zgartirmoqchi bo'layotgan mafkura shakllari barqarorlik va taraqqiyotga taxdid solmokda. Ularning asosiy shakllari va yo'naliishlari Prezidentimiz Islom Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli asarida ko'rsatib berilgan. Mazkur ma'ruzada ana shu asardan asosiy manba sifatida foydalananamiz.

Bugungi kunda inson ongi va qalbi uchun kurash keskin tus olayotgan ekan, xilma-xil qarashlarning mafkura maydonida hukmronlik qilishga intilishi tabiiy, albatta. Bunga e'tiqod umumiyligiga asoslangan holda yakka mafkura hukmronligini ta'minlash orqali jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan o'ziga qaram qilishga bo'layotgan xatti-harakatlarni misol keltirish mumkin. Diniy aqidaparastlik shular jumlasidandir. Masalan, islom dinidagi hozirgi aqidaparastlar ijtimoiy, milliy xususiyati, qaysi davlatga mansubligidan qat'iy nazar, barcha musulmonlarning ma'naviy birligi haqidagi tasavvurlarga tayanib ularning yagona xalifalik ostida siyosiy birlashuvi g'oyasini asoslashga harakat qiladi. Ko'rinish turibdiki, bu ideologiya diniy asosda birlashuv g'oyasini birinchi o'ringa qo'yadi. U diniy-ma'naviy zamindagi uyg'unlik mamlakatlarning iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, ilmiy-texnik sohalardagi hamkorligiga, ular salohiyatining birlashishiga va xalqlar taraqqiyotiga yo'l ochsa, buning nimasi yomon degan savolni o'rtaga tashlaydi. Bunday mafkura tarafдорлари o'z qarashlarini aksariyat hollarda ana shunday «beozor» shaklda takdim etishga harakat qiladilar.

Ammo, jiddiy e'tibor beriladigan bo'lsa, birinchidan, ular milliy suverenitetdan voz kechish hisobiga yagona davlat tuzishni ko'zlayotganlari ma'lum bo'ladi.

Ikkinchidan, xalifalikni tiklashga, uning to'g'ri ekanini asoslashga urinuvchilar, bu hol aynan millat sifatida o'zligimizni anglashga yo'l qo'ymasligini yashiradilar. Bu g'oyani tiqishtirishda ular bizning islom diniga e'tiqod qilishimizga alohida urg'u beradilar.

To'g'ri, biz musulmon xalkmiz. Masalaning nozik jihat shundaki, buvday kuchlar ana shu reallikni tan oladilaru, o'z tariximiz, tilimiz, betakror madaniyatimiz, jahon xalklari o'rtasvdaga o'ziga xos o'rnimiz, o'z tarakkiyot yo'limiz borligani inkor etishga harakat qiladilar. Albatta, bu Haqiqatni tan olish-olmaslik ularning ishi. Ammo o'zlarining bunday g'ayriimiy qarashlarini kishilarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ongiga singdirishga harakat qilayotganliklariga befarq qarab bo'lmaydi.

Bundan tashqari, bu oqim tarafдорлари xalifalik bayrog'i ostida birlashishni noislomiy dunyoga qarshi turish maqsadi bilan bog'lashlarini ham ta'kidlash zarur. Bunday yondashuv o'ta xavfli ekanligi hyech kimga sir emas. Zero, u insoniyatning diniy asosda qarama-qarshi qutblarga bo'linib ketishiga, ba'zan «sivilizasiyalar to'qnashuvi» deb ataladigan hodisaning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Hozirgi kunda til, madaniyat, urf-odatlardagi umumiylilik, boshqacha aytganda, etnik birlikka asoslangan holda yagona mafkuraviy maydonni yuzaga keltirish borasidagi qarashlar ham mavjud. Bunday qarashlarning shakllanish tarixi uzok

o'tmishga borib taqaladi. Bugungi kunda ularning xar biri o'ziga xos tarzda dunyoning mafkuraviy manzarasida muayyan o'rinni egallashga urinmokda.

Bugungi kunda xalqlarning lisoniy birligiga tayangan holda ularning ma'naviy-ma'rifiy birligini ta'minlash bayroga ostida takdim etilayotgan g'oyalar ortida ham aslida g'arazli maqsadlar yashiringanligini unutmaslik lozim.

Olamning bugungi kundagi mafkuraviy manzarasi haqidagi mulohazalar yakunida nima deyish mumkin? Mafkura va mafkuraviy tarbiya masalasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan, demokratik huquqiy davlat, erkin fuqarolik jamiyatining asoslarini yaratayotgan mamlakatimiz uchun ham muhim hayotiy ahamiyatga ega bo'lib qolmokda. Zero, ko'zlangan maqsadlarga ushbu orzu-umid va intilishlarni o'zvda mujassamlashtirgan g'oyaviy-nazariy qarashlar majmui bo'lmish milliy mafkura va unga asoslangan tarbiya tizimisiz erishish mumkin emasligi aniq. «Men,- deb yozadi Prezidentimiz, - Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir» degan fikrini ko'p mushohada qilaman.

Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir».

3. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi — g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining kengayishi oqibatida unga Yer yuzining barcha mintaqalari tortilganligini, mafkuraviy kurash umumbashariy miqyos kasb etganini ifodalovchi tushuncha. Insoniyat tarixining hozirgi bosqichi ijtimoiy, siyosiy, iktisodiy, ma'naviy, madaniy hayotning barcha sohalarida xalqaro munosabatlarning integrasiyalashuvi va intensivlashuvi bilan xarakterlanadi. Xususan, aloqa vositalarining rivojlanishi, ularning kompyuterlashtirilishi, elektron pochta, internet, kosmik teleradio aloka tizimlarining texnik-texnologik vositalari kuchayib ketishi bilan axborot almashuv, binobarin, g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlari ham tobora kengaymoqda.

Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvida bir-biridan tubdan farq qiladigan ikki yo'naliш, tendensiya namoyon bo'lmoqda. Birinchidan, insoniyat sivilizasiyasi tarixida erishgan har qanday moddiy va ma'naviy kadriyatlarning umuminsoniy jihatlari tarixiy makon doirasidan chiqib baynalmallahib, universallashib bormokda. Boshqacha aytganda, milliylik va umuminsoniylik tamoyillarining integrasiyalashuv jarayoni kechmokda. Ikkinchidan, millatlar va davlatlarning ijtimoiy, iktisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy rivojlanishidagi beqarorlik, ular manfaatlaridagi o'ziga xoslikni mutlaklashtirish insoniyatga, shu jumladan, o'z millatining kelajagiga xavf tug'diradigan salbiy hodisalarning mafkuralashgan holda

globallashuviga olib kelmokda. Bu xalqaro terrorizm, ekstremizm, fundamentalizm va narkobiznes hodisalarida namoyon bo'lmokda. Biron bir hudud yoki mamlakatda paydo bo'layotgan g'oyalar tez fursatda butun jahonga yoyilmoqda. Natijada, odamzot ma'lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlari xizmat qiladigan, olis-yaqin manbalardan tarqaladigan, turli mafkuraviy markazlarning bosimini doimiy ravishda sezib yashamokda.

Bu jarayonning eng muhim xususiyatlaridan biri-turli mamlakatlarni mafkuraviy zabit etish g'oyat katta iqtisodiy manfaatlar bilan qo'shilib ketganidir. Mafkuraviy globallashuv saviyasi past audio va videokassetalar, axloqsizlik, tubanlik va yovuzlikni targ'ib qiladigan «san'at asarlari»ning ham keng tarqalishiga sabab bo'lmoqda. G'oyaviy-mafkuraviy tazyiq va tajovuzlarning oldini olish uchun esa har bir millat, davlat o'zining g'oyaviy-mafkuraviy dahlsizligini ta'minlaydigan chora-tadbirlarni ko'rishi zarur bo'lib qolmoqda. Ana shunday tadbirlar izchil amalgalashirilganda mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi g'oyaviy qarashlardagi muayyan farklardan qat'iy nazar, umuminsoniy qadriyatlar, tinchlik g'oyalariga sodiklikning kamol topishiga sharoit yaratadi, umuminsoniy sivilizasiya taraqqiyotining muhim omiliga aylanadi.

Hozirgi davr va mafkuraviy poligonlar jamiyat hayotida mafkuraviy omillarning sezilarli ta'siri mavjudligini bir qarashdayoq sezish mumkin.

G'arazli geosiyosiy maksadlarga erishish yo'lidagi mafkuraviy ta'sir o'tkazishda eng avvalo **bo'lib tashla va hukmronlik qil** degan qadimiyligiga tamoyilga amal qilishga urinishni ta'kidlash zarur.

Bu tamoyilni ro'yobga chiqarishning birinchi yo'li mamlakat ichida ijtimoiy parokandalikni keltirib chiqarishdir. U jamiyat hayotining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalarida o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'lmokda. Masalan, mamlakatimizga nisbatan bu usul o'tish davridagi ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklarni bo'rttirib ko'rsatish orqali aholining mavjud holatdan norozilagini uyg'otish, o'z nog'oralariga o'ynaydigan muxolifatchi kuchlarni yuzaga keltirish yo'li bilan siyosiy beqarorlikni keltirib chiqarishga bo'lgan harakatlarda namoyon bo'ldi. Bu yo'lida diniy omildan foydalanishga urinishlar ham kuzatilayotir. Ana shu holat ham «maqsad vositani okdaydi» degan aqida g'arazli geostrategik manfaatlarni ro'yobga chiqarishning asosiy qoidasiga aylanayotganligini ko'rsatadi.

